

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UZLUKSIZ BOSHLANG'ICH, O'RTA VA O'RTA
MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI TARTIBGA SOLUVCHI NORMATIV-
HUQUQIY HUJJATLARNI TASDIQLASH TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lismizni yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son **Farmoni** ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasida uzlusiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lismizni to'g'risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq;

Boshlang'ich professional ta'lismiz bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar maktablarining namunaviy ustavi **2-ilovaga** muvofiq;

O'rta professional ta'lismiz bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning namunaviy ustavi **3-ilovaga** muvofiq;

O'rta maxsus professional ta'lismiz bosqichida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlarning namunaviy ustavi **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Tizimida o'rta va o'rta maxsus professional ta'lismiz bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlar va texnikumlar bo'lgan vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari tasdiqlangan namunaviy ustav asosida ta'lismiz muassasalarining ustavlarini ishlab chiqsinlar hamda ularning faoliyati yo'lgan qo'shilishini ta'minlasinlar.

3. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining **5-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Vazirlar Mahkamasining "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining barqarorligini ta'minlash va xarajatlarini maqbullashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 16-apreldagi 232-son **qaroriga** muvofiq kasb-hunar maktablarida boshlang'ich professional ta'lismiz dasturlari asosida ta'lismiz oladigan o'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida oylik stipendiya hamda uch mahal ovqat bilan ta'minlash tartibi 2021/2022 o'quv yilidan joriy etilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lismiz vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birqalikda o'zlar qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinnbosari B.A. Musayev hamda O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lismiz vaziri I.U. Madjidov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2020-yil 7-avgust,
466-son

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdaggi 466-son **qaroriga**
1-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasida uzlusiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lismiz
to'g'risida**

NIZOM

1-bob. Umumi qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’limni (keyingi o‘rinlarda professional ta’lim deb ataladi) tashkil etish va amalga oshirish tartibini belgilaydi.

2. O‘zbekiston Respublikasida professional ta’lim “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuniga** muvofiq amalga oshiriladi.

3. O‘zbekiston Respublikasida professional ta’lim — iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olib, mehnat bozoridagi kadrlarga bo‘lgan real ehtiyoj, ish beruvchilarining takliflari hamda “Hayot davomida ta’lim olish” prinsipi asosida shaxslarning ta’lim olishiga mo‘ljallangan.

4. Professional ta’limni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qilinadi.

5. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

boshlang‘ich professional ta’lim — YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda Xalqaro tasniflagich deb ataladi) 3-darajasiga mos keluvchi ta’lim dasturlari;

kasb — maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma’lum bir sohada mehnat faoliyatni amalga oshirish uchun lozim bo‘lgan nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar majmuasini egallagan, jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va huquqlari ta’minlangan mehnat faoliyati (mashg‘uloti)ning turidir;

kasbiy kompetensiya — bilim, ko‘nikma va amaliy tajriba asosida kasbiy faoliyatga tegishli vazifalarini bajarishda faoliyat yuritish qobiliyat;

kasb-hunar maktabi — Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta’lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang‘ich professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta’lim muassasalari;

kvalifikatsiya — kasbiy mahorat darajasi yoki pog‘onasi kasbiy talablarning muayyan pog‘onasiga muvofiqligi darajasi;

kollej — Xalqaro tasniflagichning 4-darajasigacha mos keluvchi ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlaydigan vazirliklar va idoralar tizimida faoliyat ko‘rsatadigan ta’lim muassasalari;

kompetensiya — bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui;

ko‘nikma — muayyan vazifani bajarish uchun egallangan qobiliyat;

mutaxassislik — biror kasb doirasida ma’lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va amaliy tajribasi bilan erishilgan zarur bilim, ko‘nikma va malakalar majmui;

professional standart — xodimga ma’lum bir kasbiy faoliyat turini, shu jumladan, ma’lum bir mehnat funksiyasini bajarish uchun zarur bo‘lgan malaka talablar;

professional ta’lim — ta’lim oluvchilarda ma’lum bir mutaxassislik va kasblar bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta’lim tizimi;

tabaqalashtirilgan ta’lim dasturi — Xalqaro tasniflagichning tegishli darajalariga muvofiq boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’limda kadrlar tayyorlash uchun kasb yoki mutaxassisliklarning murakkablik darajalari, o‘qitish muddatlari bir-biridan farq qiladigan ta’lim dasturi;

ta’lim dasturi — professional ta’lim muassasasi bitiruvchisiga muayyan egallagan kasb yoki mutaxassislik bo‘yicha kasbiy faoliyatni malakali bajarish imkonini berishga qaratilgan professional ta’lim tayyorgarligining asosiy mazmunini aniqlovchi davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejasи, o‘quv fanlari (modullar) dasturlari, malaka amaliyot dasturlaridan iborat hujjatlar to‘plami;

davlat ta’lim standartlari — davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

texnikum — Xalqaro tasniflagichning 5-darajasigacha mos keluvchi va oliy ta’lim tizimi bilan integratsiyalashgan ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlaydigan hamda oliy ta’lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta’lim muassasalari;

umumi kompetensiya — bilim, ko'nikma va amaliy tajriba asosida kasbiga yaqin faoliyat turlarining ko'pchiligi uchun umumi bo'lgan masalalarni hal etishda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish qobiliyati;

o'rta maxsus professional ta'lim — Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari;

o'rta professional ta'lim — Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari;

o'qitishning dual tizimi — ta'limning nazariy qismi ta'lim muassasasida va amaliy qismi ish joylarida tashkil etiladigan o'qitish turi;

o'quv rejasi — professional ta'limning muayyan kasbi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari (modullari) va kurslari hamda malaka amaliyotlari tarkibi, ularni o'rganish izchilligi, soha va tarmoqlarda ish turlarining mavsumiyligini hamda soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat;

o'quv dasturi — professional ta'lim o'quv rejasiga kiritilgan fanlar va amaliyotlarning mazmuni, o'qitishning maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan hujjat;

o'quv jarayonining grafigi — ta'lim jarayonining ketma-ketligi va almashuvchanligini, attestatsiya va ta'til vaqtlarini belgilovchi hujjat.

2-bob. Professional ta'limning maqsadi va vazifalari

6. Mehnat bozoridagi ehtiyojlar, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun raqobatbardosh kadrlarni professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali tayyorlash hamda turli yoshdagi shaxslarning "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida ta'lim olishga bo'lgan talablarini qondirish professional ta'limning maqsadi hisoblanadi.

7. Quyidagilar professional ta'limning vazifalari hisoblanadi:

ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarini tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan talablarini qondirish;

mehnat faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash;

mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion o'quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun malakali xorijiy mutaxassislarini jalb etish;

Xalqaro tasniflagich darajalari bilan uyg'unlashgan tabaqlashtirilgan ta'lim dasturlarini hamda o'qitishning kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

ta'lim olish bilan birgalikda o'quvchilarga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha zarur bilimlarni berish va ularni kelgusida o'z biznesini tashkil etishi yuzasidan metodik qo'llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish;

mamlakat iqtisodiyotini yanada isloq qilish, uni barqaror o'stirish hamda modernizatsiyalash jarayonlarida samarali ishtirok etishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga innovatsiya shakllar, texnologiyalar va ishlanmalarni faol qo'llab, professional ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligini ta'minlash;

shaxslarning professional ta'lim muassasalarini ixtiyorli tanlashi va kasb yoki mutaxassislik bo'yicha bilim olish, shuningdek, "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kasbiy tayyorlarlik va qayta tayyorlashdan o'tish imkoniga ega bo'lish sharoitlarini yaratish;

professional ta'lim olish orqali shaxsnинг intellektual, madaniy va ma'naviy rivojlanishga bo'lgan individual ehtiyojlarini qondirish, o'quvchilarda vatanparvarlikni, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda ularda mas'uliyat va ijodiy faoliyatni rivojlantirish.

3-bob. Professional ta'limni tashkillashtirish

8. Professional ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagich darajalari bilan uyg'unlashgan va tabaqlashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan professional ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar professional ta'lim muassasalari toifasiga kiradi.

9. Professional ta'lim muassasalari qonunchilik hujjalariiga muvofiq tashkil etiladi, qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

Davlat professional ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Nodavlat professional ta'lim muassasalari belgilangan tartibda jismoniy va nodavlat yuridik shaxslar tomonidan tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning xorijiy davlatlar va investorlar bilan tuzilgan shartnomalari va kelishuvlari asosida xalqaro professional ta'lim muassasalari tashkil etilishi mumkin.

Xalqaro (davlatlararo) professional ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Professional ta'lim muassasasini litsenziyalash va akkreditatsiya qilish qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo'jalik birlashmalari qonunchilik hujjalariiga muvofiq professional ta'lim muassasalarining muassislari bo'lishi mumkin.

11. Professional ta'lim muassasalari xususan, kasb-hunar maktablari nomlari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (keyingi o'rnlarda Vazirlik deb ataladi) tomonidan kollejlar va texnikumlarning nomlari esa tegishli vazirlik va idoralar tomonidan Vazirlik bilan kelishgan holda belgilanishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

12. Professional ta'lim muassasasi o'z tarkibida filiallar, kafedralar, bo'limalar, o'quv xonalari va laboratoriylar, o'quv va o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari va xo'jaliklari, texnoparklar, o'quv maydonchalari (polygonlar), yotoqxonalar, umumiy ta'lim dasturlarini, professional ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linmalar, ta'lim jarayoni bilan bog'liq boshqa tarkibiy bo'linmalarga ega bo'lishi mumkin.

Professional ta'lim muassasalarining namunaviy tuzilmalari bo'ysunuvidagi vazirliklar va idoralar tomonidan tasdiqlanadi.

Professional ta'lim muassasasining filiali mazkur professional ta'lim muassasasi idoraviy mansubligi bo'yicha tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan Vazirlik bilan kelishgan holda tashkil etiladi va tugatiladi. Professional ta'lim muassasasining filiali ushbu Nizom asosida faoliyat ko'rsatadi.

13. Professional ta'lim muassasalarida tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari doirasida professional ta'lim beriladi, o'quvchilarning kasbiy moyilliklari, mahorati va ko'nikmalarining rivojlanishi, tanlangan kasblar yoki mutaxassisliklarga ega bo'lishi ta'minlanadi.

14. Davlat ta'lim standarti talablarini bajarish, agar qonunchilik hujjalarda boshqa holatlar nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan tashkiliy-huquqiy shaklidan va idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar (xorijiy ta'lim muassasasi filiallari bundan mustasno) barcha professional ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

15. Professional ta'lim sohalari bo'yicha davlat ta'lim standarti namunasi Vazirlik tomonidan belgilanadi.

Ta'lim sohalari bo'yicha davlat ta'lim standartlari asosida kasblar va mutaxassisliklarning malaka talablari ishlab chiqiladi.

16. Ta'lim sohalari bo'yicha davlat ta'lim standartlari, kasblar va mutaxassisliklar malaka talablari, o'quv rejasi va dasturlarini ishlab chiqish uchun Vazirlik, tegishli vazirliklar va idoralar, tayanch professional ta'lim muassasalari hamda oliy ta'lim muassasalarining tajribali mutaxassislardan iborat tarkibda mualliflar jamoasi shakllantiriladi.

Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari tegishli kasb va lavozimlarning professional standartlari yoki malaka talablari asosida ishlab chiqiladi.

Tayanch professional ta'lim muassasalari ro'yxati Vazirlik tomonidan belgilanadi.

Ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejasи va dasturlari Vazirlik tomonidan tasdiqlangandan so'ng ta'lim jarayoniga joriy etiladi.

Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejasи va dasturlarini takomillashtirish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ish beruvchi tashkilotlarning takliflariga asosan Vazirlik tomonidan amalga oshiriladi.

Imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun Vazirlik tomonidan Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda professional ta'limning maxsus dasturlari ishlab chiqiladi.

17. Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejasи va dasturlarini joriy etish, muvofiqlashtirish hamda unga metodik rahbarlik qilish Vazirlik tomonidan amalga oshiriladi.

18. Tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashda xalqaro tajribani o'rgangan holda professional ta'lim jarayonlariga o'qitishning kredit-modul tizimi bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Professional ta'lim tizimida o'qitishning kredit-modul tizimini joriy etish tartibi, joriy etiladigan kasblar va mutaxassisliklar hamda to'planadigan kreditlar hajmi bo'y sunuvidagi vazirliklar va idoralar tomonidan Vazirlik bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

19. Professional ta'lim muassasalarida asosiy ta'lim dasturlaridan tashqari quyи darajadagi ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlash Vazirlikning ruxsati asosida amalga oshiriladi. Professional ta'lim muassasalari ushbu ta'lim dasturlarini tegishli turdagи professional ta'lim muassasalari uchun belgilangan tartibga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

20. Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilar, rahbar kadrlar, o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari hamda ish beruvchilar ta'lim jarayoni ishtirokchilar hisoblanadi.

21. Professional ta'lim muassasasi yuridik shaxs hisoblanadi, o'z ustaviga, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi va uning hududiy bo'limmalarida shaxsiy hisobvaraqlariga (davlat ta'lim muassasalari uchun), o'z nomi ko'rsatilgan muhrga, burchakli shtampga va blankalarga ega bo'ladi.

22. Professional ta'lim muassasalarining ustavi belgilangan tartibda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

23. Professional ta'lim muassasalari hududlarning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik sharoitlarini, mehnat bozorining tegishli soha mutaxassislariga bo'lgan talabini, manfaatdor vazirliklar va idoralarning kadrlarga bo'lgan ehtiyoji hamda oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Boshqa joylardan kelgan o'quvchilarga, imkoniyatga qarab, professional ta'lim muassasalari uchun yotoqxonalar tashkil etiladi.

Yotoqxonalarda o'quvchilarning yashash uchun to'lanadigan to'lov miqdori (bepul foydalanishda bo'ladigan yotoqxonalar bundan mustasno) professional ta'lim muassasalari tomonidan belgilanadi.

24. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari professional ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlashda o'z vakolatlari doirasida yordam ko'rsatadilar va kasb-hunar mакtablari faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadilar.

25. Professional ta'lim muassasalarining o'quvchilari va xodimlariga ijtimoiy kafolatlar, qo'llab-quvvatlash va imtiyozlar qonunchilik hujjatlari, shuningdek, professional ta'lim muassasasining ustavi asosida belgilanadi.

26. Kollejlар va texnikumlarda kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shakllari joriy etiladi.

Ta'lim shakllari Vazirlik tomonidan tizimida professional ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari va yirik korxonalar bilan kelishgan holda belgilanadi.

Sirtqi va kechki ta'lim shakllarini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

27. Professional ta'lim muassasalarida qo'shimcha kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha kvalifikatsiyalarni egallash, jumladan, traktorchi, kombayn operatori, "V" yoki "VS" toifadagi milliy haydovchilik guvohnomalarini va shu kabilarni olish istagidagi aholining turli qatlamlari uchun o'qitish muddati 6 oydan oshmagani intensiv va qo'shimcha o'quv kurslari tashkil etilishi mumkin.

Mazkur o‘quv kurslari bitiruvchilariga belgilangan tartibda tashkil etilgan imtihonlarni muvaffaqiyatli yakunlaganidan so‘ng kelgusida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beradigan davlat namunasidagi sertifikat yoki guvohnoma beriladi.

28. Professional ta’limning tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar ro‘yxati Vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan professional ta’limning tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatori asosida belgilanadi.

29. Professional ta’lim muassasalari kasblar va mutaxassisliklar bo‘yicha o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini tizimli ravishda tashkil etadilar.

Umumta’lim maktablarida kasbga yo‘naltirish bo‘yicha tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining hududiy bo‘linmalari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

30. Professional ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash belgilangan tartibda tuzilgan shartnomalar asosida o‘qitishning dual tizimi asosida tashkil etilishi mumkin. O‘qitishning dual tizimi joriy etiladigan professional ta’lim muassasalari, kasblar yoki mutaxassisliklar ro‘yxati Vazirlik bilan kelishgan holda tizimida professional ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar tomonidan tasdiqlanadi.

O‘qitishning dual tizimini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

31. Professional ta’lim muassasalarini qayta ixtisoslashtirish va tayyorlanadigan kasblar va mutaxassisliklar ro‘yxati Vazirlik tomonidan mehnat bozorining kadrlarga bo‘lgan ehtiyojidan va tarmoq vazirliklari, idoralar, xo‘jalik birlashmalari, yirik korxonalar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek, kadrlar buyurtmachilarining takliflaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

32. Professional ta’lim muassasalariga o‘quvchilar qabul ko‘rsatkichlari va o‘quvchilarni qabul qilish tartibi, agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha holatlar nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

33. O‘quvchilar o‘qitish kurslari bo‘yicha guruhlarga, o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha esa — bo‘limlarga hamda texnikumlarda kafedralarga birlashtiriladi.

Professional ta’lim muassasasi o‘quv mashg‘ulotlari ma’ruzalar shaklida o‘tkazilganda o‘quvchilar guruhlarini birlashtirishi mumkin.

34. Professional ta’lim muassasalarida qoidaga ko‘ra guruhlarni to‘ldirish kamida 12 nafar va eng ko‘pi bilan 30 nafar o‘quvchilar doirasida belgilanadi.

Zarur hollarda buyurtmachilarining takliflari asosida kasblar va mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qitish xarajatlarining qoplanishidan kelib chiqib, guruhdagi o‘quvchilar soni 12 nafardan kam bo‘lishi mumkin.

Kasb-hunar maktablari boshlang‘ich professional ta’lim bosqichidagi ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlar tayyorlashda guruhlardagi o‘quvchilar soni kamida 26 nafar etib belgilanadi.

35. O‘quvchilarning o‘quv yuklamasi, o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarining hajmi, semestrlar soni, beriladigan ta’tillar va o‘quv jarayonini tashkil etishning boshqa masalalari professional ta’limning tabaqlashtirilgan ta’lim dasturlariga muvofiq belgilanadi.

Professional ta’limning o‘quv reja va dasturlari, agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha holatlar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, Vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

Ayrim kasblar va mutaxassisliklar bo‘yicha tanlangan professional ta’lim muassasalarida davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari tajriba-sinovdan o‘tkazilishi hamda natijalar bo‘yicha xulosalar qabul qilinishi mumkin.

36. O‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun professional ta’lim muassasalarida guruhlarda o‘quvchilar soni 26 nafar va undan ortiq bo‘lganda ikkita kichik guruhga bo‘lgan holda quyidagi tartibda o‘qitishga ruxsat etiladi:

o‘zbek tili (ta’lim o‘zbek tilida olib borilmaydigan guruhlar uchun);

rus tili (ta’lim rus tilida olib borilmaydigan guruhlar uchun);

chet tili;

informatika va axborot texnologiyalari fanining amaliy mashg‘ulotlari;

jismoniy tarbiya (har bir guruhda kamida 13 nafar yigit yoki qiz bo‘lganda) mashg‘ulotlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ta'lismi qoraqalpoq tilida olib boriladigan guruhlarda qoraqalpoq tili o'quv rejasidagi ona tili va adabiyoti faniga ajratilgan soatlar hisobidan, ta'lismi rus guruhlarida olib boriladigan guruhlarga o'zbek tili uchun ajratilgan soatlar hajmida o'zbek tiliga qo'shimcha soat ajratilgan holda o'qitiladi. Boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarda o'zbek tili uchun ajratilgan soatlar hajmida qoraqalpoq tiliga qo'shimcha dars soati ajratiladi.

37. Vazirlik tomonidan tasdiqlangan namunaviy o'quv rejalarini asosida professional ta'larning tibbiyat, ta'lismi (musiqa xodimi) yo'nalishlari bo'yicha maxsus mutaxassislik fanlarining amaliy mashg'ulotlari kichik guruhlarga bo'lib o'qitiladi.

Ta'lismi (musiqa xodimi) yo'nalishlari bo'yicha yakka tartibdagi o'quv mashg'ulotlari tayyorlov yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tasdiqlangan namunaviy o'quv rejalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ayrim kasbiy fanlarni o'zlashtirish murakkabligidan kelib chiqqan holda kichik guruhlarga bo'lib o'qitish kasblari va mutaxassisliklar bo'yicha ishlab chiqiladigan namunaviy o'quv rejalarida belgilanadi.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bo'yicha guruhlarni kichik guruhlarga bo'lib o'qitish (o'quv amaliyoti bundan mustasno) taqiqlanadi. O'quv rejasidagi boshqa fanlar bo'yicha guruhlarni kichik guruhlarga bo'lib o'qitish kadrlar tayyorlash bo'yicha buyurtmachilarining qo'shimcha ajratilgan mablag'lari hisobiga amalga oshirilishiga ruxsat etilishi mumkin.

38. Davlat ta'lismi standarti talablariga rioya qilish ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organi tomonidan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

davlat ta'lismi standarti asosida professional ta'lismi muassasalarida bitiruvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga baho berish;

o'quv rejasi va dasturlarining davlat ta'lismi standartiga muvofiqligini tahlil qilish.

39. Nazorat qilishning bosh vazifasi davlat ta'lismi standarti buzilishini aniqlash, oldini olish va bartaraf qilish hisoblanadi.

40. Ta'lismi standarti talablarining buzilganligi uchun javobgarlik qonunchilik hujjatlariga muvofiq professional ta'lismi muassasasi rahbariyatiga yukланади.

41. Professional ta'lismi muassasalarida ta'lismi sifatini nazorat qilish quyidagi usullarda olib boriladi:

ichki nazorat — Vazirlik va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lismi sifatini nazorat qilish bo'yicha davlat inspeksiyasi tomonidan tasdiqlanadigan tartib asosida professional ta'lismi muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazoratni tashkil etish uchun professional ta'lismi muassasalarida budjetdan tashqari mablag'lari hisobiga shtat birliklari ajratilishi mumkin.

tashqi nazorat — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan tartib asosida amalga oshiriladi;

davlat-jamoat nazorati — ta'lismi boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi va u bilan kelishgan holda nodavlat notijorat tashkilotlari va kadrlarga talabgorlar tomonidan amalga oshiriladi;

yakuniy davlat attestatsiyasi — professional ta'lismi muassasalarida tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Professional ta'lismi muassasalarida yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi, agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha holatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, Vazirlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lismi sifatini nazorat qilish bo'yicha davlat inspeksiyasi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

42. O'quvchilarini professional ta'lismi muassasalarida o'qitish professional ta'lismi tizimining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi bilan o'zaro hamkorligi asosida quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

professional ta'lismi muassasalari o'quvchilarining korxonalarda tizimli asosda ishlab chiqarish amaliyotini o'tashi uchun shart-sharoitlar yaratish, ish beruvchilarini o'quv jarayoniga, kasblari va mutaxassisliklar bo'yicha davlat ta'lismi standarti, malaka talablari, o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqishga jalb etish;

professional ta’lim sohasida o’tkazilgan ilmiy izlanishlar natijalarini professional ta’lim muassasalarida tajriba-sinovdan o’tkazish ishlarini tashkil etish;

ish beruvchilar bilan birga ishlab chiqarish uchastkalari, qo’shma va unitar korxonalar tashkil etish asosida malakali kadrlarni tayyorlashning dual tizimini rivojlantirish;

tashkil etilgan ishlab chiqarish uchastkalari, qo’shma va unitar korxonalarda o’quvchilarni tovar mahsulotlar ishlab chiqargan holda mehnat faoliyatiga va ishlab chiqarish jarayoniga faol jalg etish;

professional ta’lim muassasalari bitiruvchilariga bitiruv malakaviy ishlari mavzularini taklif etish jarayoniga korxona, tashkilot va boshqa ish beruvchilarni jalg qilish hamda ushbu bitiruv malakaviy ishlarida erishilgan natija va yechimlarni yoki ijrochi-bitiruvchilarning o’zlarini bunday loyihalarni joylarda amalga oshirishda ishtirokini ta’minalash;

ishlab chiqarish ta’limi ustalari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonlari bevosita ishlab chiqarishda amalga oshirilishiga erishish, ishlab chiqarishdagi malakali mutaxassislar – ishlab chiqarish vakillarini ta’lim jarayoniga jalg etish.

43. Professional ta’lim muassasasida ta’lim dasturlarini muvaffaqiyatli bitirgan o’quvchiga davlat namunasidagi diplom beriladi.

Ushbu diplom olingen bilim, ko’nikma va malakalarni mehnat faoliyatida qo’llash huquqini beradi.

Oldin ta’lim olgan kasb yoki mutaxassislik doirasida qo’shimcha kvalifikatsiyalarni o’zlashtirgan shaxslarga belgilangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikatlar beriladi.

Bitiruvchilarga belgilangan tartibda tegishli razryadlar belgilanadi.

44. Professional ta’lim muassasalarida beriladigan davlat namunasidagi diplom, sertifikat, guvohnoma va akademik ma’lumotnomalar O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat namunasidagi hujjatlarni to’ldirish, saqlash, bitiruvchilarga berish va hisobini yuritish tartibi Vazirlik tomonidan belgilanadi.

45. Davlat attestatsiyasidan o’tmagan bitiruvchilarga malaka talab etilmaydigan ish o’rinlariga joylashish huquqini beradigan ma’lumotnomada beriladi. Mazkur o’quvchilar 3 yil davomida davlat attestatsiyasi faoliyat ko’rsatayotgan davrda qayta davlat attestatsiyasidan o’tishlari mumkin.

3 yil davomida davlat attestatsiyasidan o’tmagan bitiruvchilar tegishli kursda qayta o’qishlari mumkin.

4-bob. O’quvchilar o’qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o’qishdan chetlashtirish

46. O’qishni ko‘chirish yoki qayta tiklash qoidaga ko’ra, yozgi ta’til davrida, tegishli kurs (semestr)da o’quv mashg’ulotlari boshlanishiga qadar amalga oshiriladi.

47. O’qishni ko‘chirish yoki qayta tiklash o’quvchining (o’quvchi voyaga yetmagan bo’lsa uning ota-onasidan birining yoki ularning o’rnini bosuvchi shaxslarning) arizasi va professional ta’lim muassasasi tomonidan berilgan akademik ma’lumotnomasi, o’quvchining kursdan kursga o’tganligi to‘g’risidagi buyruqdan ko‘chirma, o’quvchi pasporti nusxasi, voyaga yetmagani sababli pasporti bo’limganda tug’ilganlik to‘g’risidagi guvohnoma hamda ota-onasi (yoki ularning o’rnini bosuvchi shaxslar)ning doimiy yashash joyi ko’rsatilgan pasporti nusxasidan iborat hujjatlar yig’ma jildi asosida ko’rib chiqiladi.

48. O’quvchilarning o’qishini ko‘chirish yoki qayta tiklashda professional ta’lim muassasasi direktori tomonidan ta’lim dasturlaridagi farqlarni yoki qarzlarni topshirish tartibi va muddatlar (ikki oydan ortiq bo’lmagan), shuningdek, o’quvchilarni o’qitish kursi belgilanadi.

49. Professional ta’lim muassasasi miqyosida bir darajadagi ta’lim dasturlari bo‘yicha o’qishni ko‘chirish yoki ta’lim shaklini o’zgartirish masalasi mazkur professional ta’lim muassasasi tomonidan ko’rib chiqiladi.

50. Boshlang’ich professional ta’lim dasturida ta’lim olayotgan o’quvchilar o’qishini umumiyligi o’rtalimning 10 yoki 11 sinflarida yoki boshqa boshlang’ich professional ta’lim dasturlarida ta’limni davom ettirishi uchun o’qishini ko‘chirish bo‘yicha murojaat etishlari mumkin.

Umumta’lim mакtablarida o‘qishni davom ettirish istagidagi o‘quvchilarning arizalari tegishli Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi tomonidan o‘quvchining umumta’lim mакtablarida o‘qishni davom ettirishini hal etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining hududiy bo‘linmalariga yuboriladi.

O‘qishni ko‘chirish hudud miqyosida tegishli Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi, bir mintaqadagi professional ta’lim muassasasidan boshqa mintaqaning (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) professional ta’lim muassasasiga ko‘chirish Vazirlik tomonidan ko‘rib chiqiladi.

51. Davlat granti asosida ta’lim olayotgan o‘quvchilar o‘qishini ko‘chirish yoki qayta tiklashda ularga davlat granti asosida ta’limni davom ettirish imkoniyati beriladi.

52. O‘rta professional ta’lim dasturlari doirasida o‘qishni boshqa ta’lim muassasalariga ko‘chirish qabul qiluvchi ta’lim muassasasi bo‘ysunuvchi tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

53. O‘rta maxsus professional ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘qishni ko‘chirish qabul qiluvchi ta’lim muassasasi tegishli bo‘lgan oliv ta’lim muassasasining xulosasiga ko‘ra tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

54. O‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quvchilar o‘qishi bir ta’lim shaklidan boshqa ta’lim shakliga ko‘chirilishi mumkin.

55. O‘qishni qayta tiklash o‘quvchi ta’lim olgan tegishli professional ta’lim muassasasi tomonidan ko‘rib chiqiladi va hal etiladi.

O‘quvchi oldin o‘qigan kasb yoki mutaxassislik to‘xtatilgan bo‘lsa, uning xohishiga ko‘ra turdosh kasb yoki mutaxassislikka yoki mazkur ta’lim muassasasida tegishli kasb yoki mutaxassislik bo‘lmasa, uning o‘qishi Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi tomonidan boshqa ta’lim muassasasiga tiklanishi mumkin.

56. O‘quv kursini tamomlash yakunlari bo‘yicha o‘quvchini navbatdagi kursga o‘tkazish, takroriy yilga qoldirish yoki o‘quvchilar safidan chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

57. O‘quvchini kursdan-kursga o‘tkazish, kursda qoldirish yoki o‘quvchilar safidan chiqarish professional ta’lim muassasasining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi. Kursdan-kursga shartli ravishda o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

58. Professional ta’lim dasturlari bo‘yicha akademik qarzdorlikka (o‘zlashtirmaslikka) ega bo‘lgan yoki o‘quv rejasi talablarini bajarmagan (ishlab chiqarish yoki diplom oldi amaliyotidan o‘tmagan, kurs ishini topshirmagan, 3 va undan ortiq fan bo‘yicha “qoniqarsiz” yakuniy yillik baho olgan) o‘quvchilari Pedagogik kengashning qarori bo‘yicha tegishli ta’lim dasturida takroran o‘qish uchun kursda qoldirilishi mumkin.

O‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim dasturlari asosida ta’lim olayotgan o‘quvchilarga o‘zlashtirilmagan fanlarni qayta topshirishga qo‘srimcha to‘lovlarini amalga oshirish orqali ruxsat beriladi.

O‘quvchi takroran o‘qish uchun kursda qoldirilganda uning o‘qigan o‘quv yili uchun to‘lagan kontrakt puli qaytarilmaydi va takroran o‘qiyotgan kursi uchun yangidan to‘lov amalga oshiriladi.

59. Professional ta’lim muassasasi o‘quvchilari quyidagi hollarda o‘qishdan chetlashtirilishi mumkin:

salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma’lumotnomasi asosida) akademik ta’til olganda;

o‘qishi boshqa ta’lim muassasasiga ko‘chirilishi munosabati bilan;

doimiy yashash uchun boshqa davlatga chiqib ketganda;

sudning qarori bilan ozodlikdan mahrum etilganda;

o‘rta yoki o‘rta maxsus professional ta’lim dasturlarida ta’lim olayotgan o‘quvchilar safidan o‘z xohishiga ko‘ra chiqarishni so‘rab ariza bilan murojaat qilganda;

professional ta’lim muassasasining ustavida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda;

vafot etganligi sababli;

uzrsiz sabablarga ko‘ra 74 soatdan ortiq dars qoldirganda.

60. O‘rta yoki o‘rta maxsus professional ta’lim dasturlarida ta’lim olayotgan o‘quvchilar quyidagi sabablarga ko‘ra o‘quvchilar safidan chetlashtirilganda professional ta’lim muassasasi tomonidan uning o‘qigan muddati uchun haqiqatda sarflangan xarajatlar chegirilgan holda tegishli o‘quv yili yoki semestri uchun oldindan amalga oshirilgan to‘lovning qolgan qismi kontraktning tegishli tarafi yozma murojaatiga ko‘ra qaytarib beriladi:

- o‘z xohishiga binoan;
- o‘qishning boshqa ta’lim muassasasiga ko‘chirilishi munosabati bilan;
- salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma’lumotnomasi asosida);
- o‘quvchi sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;
- vafot etganligi sababli.

61. Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilariga akademik ta’til berish tartibi Vazirlik tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishgan holda belgilanadi.

Professional ta’lim muassasasi tashabbusi bilan o‘quvchilarini kasallik, ta’til, akademik ta’til yoki tug‘ruq ta’tillari paytida ta’lim muassasasi o‘quvchilari safidan chiqarib yuborishga yo‘l qo‘yilmaydi.

61¹. Texnikum o‘quvchilarini o‘qishdan chetlashtirish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O‘quvchi chetlashtirilguniga qadar o‘zlashtirgan kreditlar miqdori texnikum tomonidan to‘liq hajmda hisobga olinadi.

Chetlashtirilgan o‘quvchiga belgilangan shakldagi akademik ma’lumotnomasi beriladi.

61². O‘quvchilar qonunchilik hujjatlari asosida o‘qishini qayta tiklash va ko‘chirish huquqiga ega.

61³. Bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan o‘quvchi ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo‘yicha tegishli kreditlarni o‘zlashtirmagan hisoblanadi.

Yakuniy nazoratga kiritilmagan yoki kirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo‘yicha qoniqarsiz baho olgan o‘quvchi akademik qarzdor hisoblanadi.

Texnikumda akademik qarzdor o‘quvchilar ta’til vaqtida yoki keyingi semestrlar mobaynida tegishli fanlardan o‘zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to‘lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda to‘lovni amalga oshirgandan so‘ng o‘zlashtirilmagan fanlarni o‘z hisobidan qayta o‘qish huquqiga ega bo‘ladi.

Texnikum pedagogik kengashi qarori bilan akademik qarzdorlikni bir marta bepul topshirishga ruxsat berilishi mumkin.

61⁴. O‘quvchini kursdan kursga o‘tkazish, uning GPA qiymatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bunda GPA ko‘rsatkichi 2,4 dan kam bo‘lmasligi talab etiladi. GPA ko‘rsatkichini to‘play olmagan o‘quvchi qayta o‘qish uchun tegishli kursda qoldiriladi.

61⁵. Semestr va o‘quv yili yakuni natijalari bo‘yicha akademik qarzdorligi bor ta’lim oluvchilar o‘qishdan chetlashtirilmaydi va kursda qoldiriladi.

Kursda qolgan o‘quvchilar faqat qarzdor bo‘lgan modullarni o‘zlashtirib, ularga mos ravishda shartnama mablag‘larini to‘laydi. Shartnama asosida bir kursda qayta o‘qish soni chegaralanmaydi.

GPA ko‘rsatkichini hisoblashda o‘quvchi tahsil olgan kurs yakuniga ko‘ra qayta topshirish natijalari ham inobatga olinadi.

O‘quvchi ishlab chiqarish (diplomoldi) amaliyotiga qatnashmagan yoki amaliyot yakunlari bo‘yicha qoniqarsiz baho bilan baholangan hollarda, u akademik qarzdor hisoblanadi va GPA ko‘rsatkichidan qat’i nazar kursda qoldiriladi.

O‘quv rejasida belgilangan ta’lim olish muddatida tegishli kurslarni tamomlagan, lekin belgilangan kredit miqdorini to‘play olmagan o‘quvchi texnikumda o‘qishni bitirayotgan o‘quvchi sifatida qayd etiladi.

Jami ta’lim olish muddati birinchi kursga o‘qishga qabul qilingandan so‘ng 6 yilgacha deb belgilanadi.

O‘quvchi ta’lim dasturi bo‘yicha yakuniy kursni tugatgandan so‘ng belgilangan eng kam kreditlar miqdorini to‘plab, shartnomha to‘lovidan qarzi bo‘lmasa, “bitiruvchi” maqomiga ega bo‘ladi.

5-bob. Boshlang‘ich professional ta’lim

1-§. Boshlang‘ich professional ta’lim muassasalari boshqaruvi

62. Boshlang‘ich professional ta’lim bosqichidagi ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan kasb-hunar maktablari Vazirlilik tizimida bo‘ladi.

63. Kasb-hunar maktablariga O‘zbekiston Respublikasi oliv va o‘rta maxsus ta’lim vaziri tomonidan belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor boshchilik qiladi. Direktor kasb-hunar maktabining faoliyati natijalari uchun shaxsan javob beradi.

Kasb-hunar maktabi direktori qonunchilik hujjatlariga va ustavga muvofiq ta’lim muassasasi nomidan ish yuritadi, shartnomalar, shu jumladan, mehnat shartnomalari tuzadi, ishonchnomalar beradi, belgilangan tartibda kasb-hunar maktabining shaxsiy hisobvaraqlarini ochadi, o‘z vakolati doirasida barcha xodimlar va o‘quvchilar uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi.

Direktor belgilangan tartibda ishchi va xizmatchilarni ishga qabul qiladi va ishdan bo‘shatadi, shuningdek, ularning xizmat vazifalarini belgilaydi.

64. Kasb-hunar maktabi direktori huzurida kollegial organ hisoblangan pedagogik kengash tashkil etiladi.

Pedagogik kengashning funksiyalari kasb-hunar maktabining Ustavida belgilanadi.

2-§. Boshlang‘ich professional ta’lim bosqichida ta’lim jarayonini tashkil etish

65. Professional ta’lim muassasasiga o‘qishga o‘quvchilar direktorning buyrug‘i bilan qabul qilinadi.

66. O‘quvchilarga o‘quvchilik guvohnomasi beriladi. O‘quvchilik guvohnomasi namunasi Vazirlilik tomonidan tasdiqlanadi.

67. O‘quvchilar quyidagi huquqlarga ega:

professional ta’lim muassasasi faoliyatiga doir masalalarni muhokama va hal etishda bevosita yoki bilvosita (fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari orqali) ishtirok etish;

belgilangan tartibda professional ta’lim muassasalari ma’muriyatining buyruqlari ustidan shikoyat qilish;

kasbiy kompetensiyalar va umumta’lim fanlarini o‘zlashtirishni rivojlantirishga qaratilgan turli ko‘rik-tanlovlarda belgilangan tartibda ishtirok etish;

axborot — kutubxonalar, professional ta’lim muassasasining o‘quv, ijtimoiy, davolash va boshqa bo‘linmalari xizmatlaridan ta’lim muassasasi ustavida belgilangan tartibda bepul foydalanish.

O‘quvchilar boshlang‘ich professional ta’lim dasturida, professional ta’lim muassasasining ustavida, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan huquqlardan foydalanishi mumkin.

68. Boshlang‘ich professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlash umumta’lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta’lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlariga asosan kasb-hunar maktablarida amalgamash oshiriladi.

O‘quvchilar kasblarning murakkabligidan kelib chiqqan holda bir yoki bir nechta kvalifikatsiyalarni o‘zlashtirishiga mo‘ljallangan 2 yillik boshlang‘ich professional ta’lim dasturlari asosida ta’lim oladilar.

69. Boshlang‘ich professional ta’lim dasturlari kunduzgi ta’lim shaklida tashkil etiladi.

70. Umumta’lim fanlari qoidaga ko‘ra kasblarning xususiyatlaridan kelib chiqib qisqartirilgan holda malaka talablari va o‘quv rejalariga kiritiladi.

Malaka talablari va o‘quv rejalariga kiritiladigan umumta’lim fanlari ro‘yxati va soatlar hajmi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi bilan birgalikda Vazirlilik tomonidan belgilanadi.

O‘quv rejalariga o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi qo‘srimcha fanlar ham kiritilishi mumkin.

O‘quv rejasidagi o‘quv yuklamasining taqsimoti tegishli kasbning xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Kasblarning xususiyatlari hamda ularni o‘qitish uchun belgilangan soatlar hajmidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarni ikki yil davomida amalga oshirilgan ta’lim dasturida ikki yoki undan ko‘p kvalifikatsiyalarga o‘qitish yo‘lga qo‘yilishi mumkin.

71. Ta’lim jarayoni mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda mustaqil ravishda professional ta’lim muassasasi tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan o‘quv jarayoni grafigi hamda dars jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

72. Boshlang‘ich professional ta’lim dasturlari asosida faoliyat ko‘rsatuvchi ta’lim muassasalarida o‘quv yili 2-sentabrdan boshlanadi va tasdiqlangan o‘quv jarayoni grafigiga muvofiq yakunlanadi.

O‘quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

nazariy va amaliy ta’lim: 80 — 85 foiz;

yakuniy davlat attestatsiyasi: 2 — 4 foiz;

ta’tillar: 13 — 16 foiz.

O‘quv yuklamalari umumta’lim, kasbiy (umumkasbiy va maxsus) fanlar va amaliyotlar bloklari bo‘yicha taqsimlanishi Vazirlik tomonidan belgilanadi.

O‘quv yili davomida o‘quvchilarga beriladigan ta’tillar o‘quv jarayoni grafigiga muvofiq beriladi. Vazirlik tomonidan o‘quvchilarga qo‘srimcha ta’tillar berilishi mumkin.

73. O‘quvchilarning umumiy haftalik yuklamalari 54 soat, shundan auditoriya va amaliyot mashg‘ulotlari hajmi 42 soatgacha bo‘ladi.

O‘quv mashg‘ulotlari uchun ikki akademik o‘quv soati davomiyligi uzlusiz 80 daqiqani tashkil etadi. Bunda o‘quv rejasiga muvofiq 40 daqiqadan iborat bir akademik o‘quv soati joriy etilishi mumkin.

O‘qishning normativ muddati ikki yil bo‘lgani holda o‘quv jarayoni 94 hafta davom etadi.

74. Kasb-hunar maktabida asosiy ta’lim bosqichidan tashqari to‘lov-kontrakt asosida qo‘srimcha ta’lim xizmatlari ko‘rsatilishi mumkin.

Bunda kasb-hunar maktabining o‘quvchilarni qabul qilish imkoniyatlari, moddiy-texnik bazaning yaratilganligi, o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi ustalar ta’minoti va o‘qish istagidagi shaxslarning mavjudligi hisobga olinadi.

75. Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan kasblar doirasida to‘lov-kontrakt asosida qo‘srimcha kvalifikatsiyalarni o‘zlashtirish istagidagi shaxslarning o‘qitish muddatlari oldingi ta’lim olgan dasturlarni ko‘rib chiqqan holda kasblarning o‘quv rejasida mazkur kvalifikatsiyalarni o‘zlashtirish uchun ajratilgan soatlardan kelib chiqib belgilanadi.

76. Boshlang‘ich professional ta’lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan va davlat namunasidagi diplom olgan bitiruvchilar mazkur diplom asosida oliy ta’lim muassasalarida ta’limni davom ettirish uchun hujjat topshirishlari mumkin.

6-bob. O‘rta professional ta’lim

1-§. O‘rta professional ta’lim muassasalari boshqaruvi

77. O‘rta professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlash asosan vazirliklar va idoralar tizimida faoliyat ko‘rsatadigan kollejlarda amalga oshiriladi va ular tegishli ravishda vazirliklar va idoralarning idoraviy bo‘ysunuvida bo‘ladi.

78. Kollejlarga tegishli vazirliklar va idora rahbari tomonidan belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor boshchilik qiladi. Direktor kollejning faoliyati natijalari uchun shaxsan javob beradi.

79. Kollej direktori qonunchilik hujjatlariga va ustavga muvofiq ta’lim muassasasi nomidan ish yuritadi, shartnomalar, shu jumladan, mehnat shartnomalari tuzadi, ishonchnomalar beradi, belgilangan tartibda kollejning shaxsiy hisobvaraqlarini ochadi, o‘z vakolati doirasida barcha xodimlar va o‘quvchilar uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi.

Direktor belgilangan tartibda ishchi va xizmatchilarni ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi, shuningdek, ularning xizmat vazifalarini belgilaydi.

80. Kollej direktori huzurida kollegial organ hisoblangan pedagogik kengash tashkil etiladi. Pedagogik kengashning faoliyati kollejning Ustavida belgilanadi.

81. Kollejlarda tarmoq vazirliklari va idoralari vakillaridan iborat tarkibda vasiylik kengashlari tuzilishi mumkin.

Vasiylik kengashi tarkibi va uning faoliyati tartibi tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan tasdiqlanadi.

82. Tizimida kollejlar mavjud bo'lgan vazirliklar va idoralar:

kollejlarni budgetdan tashqari mablag'lar hisobiga moddiy va moliyaviy ta'minlaydilar; o'quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratadilar;

bitiruvchilarni amaliyot o'tashi uchun amaliyot bazalari bilan ta'minlaydilar va egallangan kasb yoki mutaxassisliklar bo'yicha ular mehnatidan samarali foydalanish masalalarini hal etadilar.

83. Tizimida kollejlar mavjud bo'lgan vazirliklar va idoralar o'quvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqishi va uni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar ajratishi mumkin.

2-§. O'rta professional ta'lism darajasida ta'lism jarayonini tashkil etish

84. Vazirliklar va idoralar tizimida faoliyat ko'rsatadigan professional ta'lism muassasasiga o'qishga o'quvchilar direktorning buyrug'i bilan qabul qilinadi.

85. O'rta professional ta'lism dasturlarida o'quvchilar to'lov-kontrakt yoki davlat buyurtmasi bo'yicha davlat granti asosida ta'lism olishlari mumkin.

86. O'quvchilarga kollej tomonidan o'quvchilik guvohnomasi beriladi. O'quvchilik guvohnomasi tizimida kollejlar mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan Vazirlik bilan kelishgan namuna asosida belgilangan tartibda ta'minlanadi.

87. Tizimida kollejlar mavjud bo'lgan vazirliklar va idoralar tomonidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga ta'lism oladigan o'quvchilar bo'yicha mablag' ajratgan muassasa, o'quvchi va kollej o'rtasida kadrlar tayyorlash bilan bog'liq qo'shimcha shartlarni aks ettirgan shartnomalar imzolanishi mumkin.

88. O'quvchilar quyidagi huquqlarga ega:

professional ta'lism muassasasi faoliyatiga doir masalalarni muhokama va hal etishda bevosita yoki bilvosita (fuqarolardan o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlari orqali) ishtirop etish;

belgilangan tartibda professional ta'lism muassasalari ma'muriyatining buyruqlari ustidan shikoyat qilish;

ta'lism dasturlari bo'yicha ta'lismni davom ettirishini to'xtatish bo'yicha professional ta'lism muassasasi rahbariyatiga murojaat qilish;

axborot — kutubxonalardan, professional ta'lism muassasasining o'quv, ijtimoiy, davolash va boshqa bo'linmalari xizmatlaridan ta'lism muassasasi ustavida belgilangan tartibda bepul foydalanish;

kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan turli ko'rik-tanlovlarda belgilangan tartibda ishtirop etish;

ish beruvchilar tomonidan tavsiya qilingan ish joylarida ishslash bo'yicha murojaat qilish.

O'quvchilar o'rta professional ta'lism dasturida, professional ta'lism muassasasining ustavida, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjalarda belgilangan huquqlardan foydalanishi mumkin.

89. Ta'lism dasturlarini o'zlashtirishdagi yutuqlar, eksperimental konstrukturlik, dizayn va boshqa ishlarni rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishganligi uchun o'quvchilarni ma'naviy rag'batlantirishning turli shakllari qo'llanilishi mumkin.

90. O'rta professional ta'lism darajasida kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3-darajasiga mos ta'lism dasturlarini tamomlagan yoki umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan "Hayot davomida ta'lism olish" prinsipi asosida kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yilgacha muddatda tashkil etiladi.

91. O'rta professional ta'lim dasturlarining davomiyligi kasblar va mutaxassisliklarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda tabaqlashtiriladi.

Professional ta'limning tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatorida kasblar va mutaxassisliklarning o'qitish muddatlari belgilanadi.

"Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kasb yoki mutaxassislik doirasida qo'shimcha kvalifikatsiyalarni o'zlashtirish istagidagi shaxslarni o'qitish muddatlari oldingi ta'lim olgan dasturlarni ko'rib chiqqan holda kasblar va mutaxassisliklarning o'quv rejasida mazkur kvalifikatsiyalarni o'zlashtirish uchun ajratilgan soatlardan kelib chiqib belgilanadi.

92. Ta'lim jarayoni mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda mustaqil ravishda professional ta'lim muassasasi tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan o'quv jarayoni grafigi hamda dars jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

93. O'rta professional ta'lim dasturlari asosida faoliyat ko'rsatuvchi ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni ta'lim muassasalari va buyurtmachilarining kelishuvi asosida boshlanadi va tasdiqlangan o'quv jarayoni grafigiga muvofiq yakunlanadi.

O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

nazariy va amaliy ta'lim: 75 — 95 foiz;

yakuniy davlat attestatsiyasi: 1 — 5 foiz;

ta'tillar: 4 — 20 foiz

O'quv yuklamalari kasbiy (umumkasbiy va maxsus) fanlar va amaliyotlar bloklari bo'yicha taqsimlanishi Vazirlik tomonidan belgilanadi.

O'quv yili davomida o'quvchilarga beriladigan ta'tillar o'quv jarayoni grafigiga muvofiq beriladi. Vazirlik tomonidan o'quvchilarga qo'shimcha ta'tillar berilishi mumkin.

94. Vazirliklar, idoralar va ish beruvchilarining buyurtmalari yoki o'quvchilarning xohish-istiklari asosida o'quv rejalariga qo'shimcha fanlar kiritilishi mumkin. Mazkur o'quv rejasidagi qo'shimcha fanlarni o'qitish xarajatlari buyurtmachilarining mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

95. O'quvchilarning umumiy haftalik yuklamalari 54 soat, shundan kunduzgi ta'lim shaklida auditoriya va amaliyot mashg'ulotlari hajmi 36 soatgacha bo'ladi.

O'quv mashg'ulotlari uchun ikki akademik o'quv soati davomiyligi uzlusiz 80 daqiqani tashkil etadi. Bunda o'quv rejasiga muvofiq 40 daqiqadan iborat bir akademik o'quv soati joriy etilishi mumkin.

O'qishning normativ muddati ikki yilgacha bo'lgani holda o'quv jarayoni 22 — 94 hafta davom etishi zarur.

96. Sirtqi va kechki ta'lim shakllarining o'quv rejasi va dasturlari buyurtmachilarining takliflari asosida professional ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi va Vazirlikka tasdiqlash uchun kiritiladi.

Sirtqi va kechki ta'lim shakllarining o'qitish davomiyligi kunduzgi ta'lim shaklidagi muddatlardan farqlanishi mumkin.

7-bob. O'rta maxsus professional ta'lim

1-§. O'rta maxsus professional ta'lim muassasalari boshqaruvi

97. O'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlash asosan oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat ko'rsatuvchi texnikumlarda amalga oshiriladi va ular tegishli ravishda oliy ta'lim muassasalari, vazirliklar va idoralarning idoraviy bo'ysunuvida bo'ladi.

98. Texnikumlarga tegishli oliy ta'lim muassasasining tavsiyasi asosida vazirlik va idora rahbari tomonidan belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor boshchilik qiladi. Direktor texnikumning faoliyati natijalari uchun shaxsan javob beradi.

99. Texnikum direktori qonunchilik hujjatlariga va ustavga muvofiq ta'lim muassasasi nomidan ish yuritadi, shartnomalar, shu jumladan, mehnat shartnomalari tuzadi, ishonchnomalar beradi, belgilangan tartibda texnikumning shaxsiy hisobvaraqlarini ochadi, o'z vakolati doirasida barcha xodimlar va o'quvchilar uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi.

Direktor belgilangan tartibda ishchi va xizmatchilarni ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi, shuningdek, ularning xizmat vazifalarini belgilaydi.

100. Texnikum direktori huzurida kollegial organ hisoblangan pedagogik kengashlar tashkil etiladi.

Pedagogik kengashning funksiyalari texnikumning Ustavida belgilanadi.

101. Texnikumlarda tarmoq vazirliklari, idoralari, belgilangan tartib va ustav asosida ish ko‘rvuchi nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini o‘z ichiga oladigan vasiylik kengashlari tuzilishi mumkin.

Vasiylik kengashi tarkibi va uning faoliyati tartibi tegishli vazirlilik va idora tomonidan tasdiqlanadi.

102. Tizimida texnikumlar mavjud bo‘lgan vazirliklar va idoralar:

a) tegishli ish beruvchilar bilan birgalikda:

texnikumlarni moddiy va moliyaviy ta’minlaydilar;

bitiruvchilarni amaliyot o‘tashi uchun amaliyot bazalari bilan ta’minlaydilar va egallangan kasb yoki mutaxassisliklar bo‘yicha ular mehnatidan samarali foydalanish masalalarini hal etadilar.

b) tegishli oliy ta’lim muassasalari bilan birgalikda:

o‘quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratadilar;

texnikum bitiruvchilari kelgusida oliy ta’lim muassasalarining tegishli yo‘nalishlarida ta’limni davom ettirishini hisobga olgan holda tayyorlanadigan mutaxassisliklar ro‘yxatini shakllantiradilar;

texnikumlarning kamida 2 yillik muddatga mo‘ljallangan ta’lim dasturlarini ishlab chiqadilar va Vazirlikka tasdiqlash uchun taqdim etadilar;

kunduzgi ta’lim dasturlari bitiruvchilari oliy ta’lim muassasasining 2-kursidan to‘lov-kontrakt asosida ta’limni davom ettirishini tashkil etadilar.

Tegishli oliy ta’lim muassasalari texnikumlarni moddiy va moliyaviy ta’minlashda ishtirok etishlari hamda moliyaviy yordam ko‘rsatishlari mumkin.

Tizimida texnikumlar mavjud bo‘lgan vazirliklar va idoralar qonunchilik hujjalriga muvofiq texnikumlar faoliyatini tashkil etishda boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

2-§. O‘rta maxsus professional ta’lim darajasida ta’lim jarayonini tashkil etish

103. Oliy ta’lim muassasalari huzuridagi professional ta’lim muassasasiga o‘qishga o‘quvchilar direktorning buyrug‘i bilan qabul qilinadi.

104. O‘rta maxsus professional ta’lim dasturlarida o‘quvchilar to‘lov-kontrakt yoki davlat buyurtmasi bo‘yicha davlat grantlari asosida ta’lim olishlari mumkin.

105. O‘quvchilarga texnikum tomonidan o‘quvchilik guvohnomasi beriladi. Tizimida texnikumlar mavjud bo‘lgan vazirliklar va idoralar Vazirlik bilan kelishilgan namuna asosida belgilangan tartibda o‘quvchilik guvohnomasi bilan ta’minlaydilar.

106. O‘quvchilar quyidagi huquqlarga ega:

professional ta’lim muassasasi faoliyatiga doir masalalarni muhokama va hal etishda bevosita yoki bilvosita (fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari orqali) ishtirok etish;

belgilangan tartibda professional ta’lim muassasalari ma’muriyatining buyruqlari ustidan shikoyat qilish;

ta’lim dasturlari bo‘yicha ta’limni davom ettirishini to‘xtatish bo‘yicha professional ta’lim muassasasi rahbariyatiga murojaat qilish;

axborot kutubxonalardan, professional ta’lim muassasasining o‘quv, ijtimoiy, davolash va boshqa bo‘linmalari xizmatlaridan ta’lim muassasasi ustavida belgilangan tartibda bepul foydalanish;

kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan turli ko‘rik-tanlovlarda belgilangan tartibda ishtirok etish;

ish beruvchilar tomonidan tavsiya qilingan ish joylarida ishslash bo‘yicha murojaat qilish;

oliy ta’lim muassasasining tegishli yo‘nalishlarida ta’limni davom ettirish maqsadida suhbatlarda qatnashish.

O‘quvchilar o‘rta maxsus professional ta’lim dasturida, professional ta’lim muassasasining ustavida, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan huquqlardan foydalanishi mumkin.

107. Ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishdagi yutuqlari, eksperimental konstrukturlik, dizayn va boshqa ishlarni rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishganligi uchun o‘quvchilarni ma’naviy rag‘batlantirishning turli shakllari qo‘llanilishi mumkin.

108. O‘rta maxsus professional ta’lim darajasida kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3 yoki 4-darajasiga mos ta’lim dasturlarini tamomlagan yoki umumiy o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar hisobidan “Hayot davomida ta’lim olish” prinsipi asosida kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yildan kam bo‘lmagan muddatda tashkil etiladi.

109. O‘rta maxsus professional ta’lim dasturlari oliy ta’lim muassasalarining tegishli yo‘nalishlari ta’lim dasturlari bilan integratsiyalanadi.

110. O‘rta maxsus professional ta’lim dasturlarining davomiyligi mutaxassisliklarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda tabaqlashtiriladi.

Professional ta’limning tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar klassifikatorida mutaxassisliklarning o‘qitish muddatlari belgilanadi.

“Hayot davomida ta’lim olish” prinsipi asosida mutaxassislik doirasida qo‘srimcha kvalifikatsiyalarni o‘zlashtirish istagidagi shaxslarning o‘qitish muddatlari oldingi ta’lim olgan dasturlarni ko‘rib chiqqan holda mutaxassisliklarning o‘quv rejasida mazkur kvalifikatsiyalarni o‘zlashtirish uchun ajratilgan soatlardan kelib chiqib belgilanadi.

111. O‘rta maxsus professional ta’lim dasturlari asosida faoliyat ko‘rsatuvchi ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni qoidaga ko‘ra 2-sentabrda boshlanadi va tasdiqlangan o‘quv jarayoni grafigiga muvofiq yakunlanadi.

O‘quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

nazariy va amaliy ta’lim: 80 — 85 foiz;

yakuniy davlat attestatsiyasi: 1 — 3 foiz;

ta’tillar: 14 — 18 foiz.

O‘quv yuklamalari gumanitar va tabiiy fanlar, mutaxassislik fanlari va amaliyotlar bloklari bo‘yicha taqsimlanishi Vazirlik tomonidan belgilanadi.

O‘quv yili davomida o‘quvchilarga beriladigan ta’tillar o‘quv jarayoni grafigiga muvofiq beriladi. Vazirlik tomonidan o‘quvchilarga qo‘srimcha ta’tillar berilishi mumkin.

112. O‘quvchilarning umumiy haftalik yuklamalari 54 soat, shundan kunduzgi ta’lim shaklida auditoriya va amaliyot mashg‘ulotlari hajmi 36 soatgacha bo‘ladi.

O‘quv mashg‘ulotlari uchun ikki akademik o‘quv soati davomiyligi uzlusiz 80 daqiqani tashkil etadi. Bunda o‘quv rejasiga muvofiq 40 daqiqadan iborat bir akademik o‘quv soati joriy etilishi mumkin.

O‘qishning normativ muddati ikki yildan kam bo‘lmagan holda o‘quv jarayoni kamida 94 hafta davom etishi zarur.

113. O‘rta maxsus ta’lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarning oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt asosida o‘qishini davom ettirishi tartibi, agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha holatlar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, Vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

114. Sirtqi va kechki ta’lim shakllarining o‘quv rejasni va dasturlari buyurtmachilarning takliflari asosida professional ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi.

Sirtqi va kechki ta’lim shakllarining o‘qitish davomiyligi kunduzgi ta’lim shaklidagi muddatlardan farqlanishi mumkin.

8-bob. Professional ta’lim muassasalari o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi ustalari

115. Professional ta’lim muassasalarida Vazirlik tomonidan tasdiqlanadigan professional standartlar asosida tegishli ma’lumotga va belgilangan talablarga javob beradigan o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi ustalari ishslash huquqiga ega. Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish sud qaroriga muvofiq taqiqlangan shaxslar bundan mustasno.

116. Professional ta’lim muassasalariga o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi ustalarini ishga qabul qilish professional ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Professional ta’lim muassasalarida o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi ustalarini ishga qabul qilishda tanlov tashkil etish tartibi Vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

Ayrim vazirliklar va idoralarning xususiyatidan kelib chiqib, ularning tizimidagi professional ta’lim muassasalariga o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi ustalarini ishga qabul qilishda o’sha vazirlik va idora tomonidan Vazirlik bilan kelishgan holda boshqacha tartib belgilanishi mumkin.

117. Professional ta’lim muassasasi o‘qituvchilarini va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining o‘quv yuklamalari tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilanadi.

O‘qituvchilarning (o‘quv fanlari va soatlar bo‘yicha) boshqa o‘qituvchilar o‘rnida ishlashi tartibi tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

118. Professional ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini va ishlab chiqarish ta’limi ustalarini attestatsiyadan o‘tkazish belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

119. Professional ta’lim muassasasi ma’muriyati o‘qituvchilarini va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining pedagogik, kasbiy va psixologik mahoratini doimiy ravishda takomillashtirish, malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun javob beradi.

120. Professional ta’lim muassasasi o‘qituvchilarini va ishlab chiqarish ta’limi ustalarini tayyorlash, malakasini oshirish, va ularni qayta tayyorlash belgilangan muddatlarda va tartibda amalga oshiriladi.

121. Professional ta’lim muassasalarida amaliyot mashg‘ulotlarini o‘tkazishda pedagogik ma’lumotga ega bo‘lmagan, biroq ko‘p yillik tajribaga ega malakali mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

122. Professional ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining huquqlari va majburiyatlarini tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq belgilanadi.

123. Professional ta’lim muassasalari ma’muriyati o‘qituvchilarini va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining professional ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash sohasidagi innovatsion g‘oyalari va takliflarini, o‘quv-metodik materiallarini, shuningdek, ilmiy izlanishlar olib borishini o‘z vakolatlari doirasida qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining takliflari va o‘quv-metodik materiallarni professional ta’lim tizimida ommalashtirish bo‘yicha ta’lim muassasalari rahbariyati vakolatli organlar bilan hamkorlikni o‘rnatadi.

9-bob. Professional ta’lim muassasalarining moliyaviy ta’minoti

124. Professional ta’limni moliyalashtirish manbalari qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

125. Kasb-hunar maktablarida boshlang‘ich professional ta’lim dasturlari asosida ta’lim olayotgan o‘quvchilar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida oylik stipendiya hamda uch mahal ovqat bilan ta’minlanadi.

126. Kasb-hunar maktablari o‘quvchilarni uch mahal ovqat bilan ta’minlashi yoki mazkur ovqat pullarini ularga to‘lab berishi mumkin.

Kasb-hunar maktablarida o‘quvchilarni uch mahal ovqatlantirish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti hisobidan o‘quvchilarni uch mahal ovqat bilan ta’minlash autsorsing shartlari asosida amalga oshiriladi.

Professional ta’lim muassasalarida autsorsing usulida ovqatlantirishni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

127. Kam ta’minlangan oilalardan o‘quvchilar kollejlar va texnikumlarda ta’lim olishlari, belgilangan tartibda bepul amalga oshiriladi.

128. Yetim va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar belgilangan tartibda moddiy ta’minlanadi.

129. Professional ta’lim muassasalarining moliyaviy ta’minoti darajasini oshirish maqsadida qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lmagan ta’lim xizmatlari ko‘rsatilishi, tadbirkorlik faoliyatini,

maslahatlar berish tizimini, ekspertiza qilishni, noshirlik ishlarini va ishlab chiqarishning boshqa turlari yo‘lga qo‘yishi mumkin.

130. Kollejlar va texnikumlar bo‘ysunivi bo‘yicha tegishli vazirliklar va idoralar hamda Vazirlikning Kasb-hunar ta’limini rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari bilan kelishgan holda har yili o‘qitishning shakllanayotgan jami xarajatlaridan kelib chiqib to‘lov-kontrakt miqdorlarini belgilaydilar.

Nodavlat professional ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt qiymati miqdorlari nodavlat professional ta’lim muassasasi tomonidan muassislar bilan kelishgan holda belgilanadi.

131. Xorijiy fuqarolar belgilangan tartibda professional ta’lim muassasalarida ta’lim olishlari mumkin. Xorijiy fuqarolarni o‘qitish muddati, davomiyligi va ularni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymati professional ta’lim muassasalari tomonidan bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda belgilanadi.

“IT-visa”ga ega bo‘lgan xorijiy fuqarolar, shuningdek, ularning oila a’zolari (turmush o‘rtog‘i, ota-onasi va farzandlari) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan shartlar asosida ta’lim olish va o‘qishga kirish huquqiga ega.

132. Professional ta’lim muassasalari xodimlarining ish haqi, samarali faoliyatlarini rag‘batlantirish miqdori va ish haqiga boshqa qo‘srimcha to‘lovlari qonunchilik hujjatlariga va professional ta’lim muassasalarining ustavlariga muvofiq belgilanadi.

133. Professional ta’lim muassasasining mol-mulki uning tezkor boshqaruvida bo‘ladi va ulardan faqat mazkur Nizom hamda ustavda qayd etilgan vazifalarni hal etish uchun foydalaniadi.

134. Professional ta’lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan jihozlashning namunaviy me’yorlari asosida jihozlanadi.

135. Nodavlat professional ta’lim muassasalarini moddiy-texnik ta’minalash muassislar tomonidan, davlat ta’lim muassasalari uchun O‘zbekiston Respublikasida amal qiluvchi namunaviy me’yorlardan past bo‘lmagan miqdorlarda amalga oshiriladi.

136. Professional ta’lim muassasalarining mol-mulki, bino va inshootlari hamda yer maydonlari boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan hal etiladi.

Professional ta’lim muassasasining mol-mulkidan samarali va maqsadli foydalaniishi uchun professional ta’lim muassasasi direktori to‘liq javob beradi.

137. Professional ta’lim muassasalari moliya va statistika hisobotini yuritadi hamda uni belgilangan muddatlarda tegishli organlarga taqdim etadi.

138. Professional ta’lim muassasalarining moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

139. Professional ta’lim dasturlari asosida kadrlarni maqsadli tayyorlashni moliyalashtirishda, professional ta’lim muassasalarining moddiy-texnika va resurs bazasini mustahkamlashda, shuningdek, zamonaviy anjomlar, apparaturalar va uskunalar bilan jihozlashda korxonalar, tashkilotlar va boshqa ish beruvchilar ixtiyoriy (yoki tuzilgan shartnomalar asosida) qatnashishi mumkin.

140. Professional ta’lim muassasasi belgilangan tartibda mulkni ijara oluvchi va ijara beruvchi sifatida faoliyat yuritish huquqiga ega.

141. Professional ta’lim muassasasi tomonidan qo‘srimcha mablag‘lar jalg qilinishi davlat budjeti tomonidan uni moliyalashtirish miqdorini kamaytirishga olib kelmaydi.

142. Professional ta’lim muassasasi tomonidan tadbirkorlik va boshqa daromad keltiradigan faoliyatdan olingan budjetdan tashqari mablag‘lar belgilangan tartibda ishlatiladi.

Ushbu mablag‘lar bilan operatsiyalar belgilangan tartibda daromad keltiradigan faoliyatni amalga oshirish uchun daromadlar va xarajatlar smetalariga muvofiq amalga oshiriladi.

10-bob. Xalqaro hamkorlik

143. Professional ta’lim muassasasi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq ta’lim, ilmiy va boshqa faoliyat sohalarida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish huquqiga ega.

Professional ta’lim muassasalarining xalqaro hamkorligi xorijiy jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar asosida ham amalga oshiriladi.

144. Professional ta’lim muassasalarida xorijiy davlatlarning ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo’shma ta’lim dasturlari amalga oshirilishi va hamkorlikda qo’shma bo‘limlar (fakultetlar) belgilangan tartibda tashkil etilishi mumkin.

145. Professional ta’lim muassasasi O’zbekiston Respublikasi qonunchiliga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega.

146. Belgilangan tartibda professional ta’lim muassasalari xodimlari xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy davlatlarga malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslariga jalb etilishi mumkin.

147. Professional ta’lim muassasalari xorijiy davlatlarning fuqarolariga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishni tashkil etish va rivojlantirish uchun belgilangan tartibda mazkur davlatlar fuqarolari o‘rtasida kasbga yo‘naltirish tadbirlarini tashkil etishi mumkin.

11-bob. Yakunlovchi qoidalar

148. Professional ta’lim muassasalarida o‘quv yuklamalarining hajmi va taqsimoti bo‘yicha boshqa me’yorlar davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va malaka talablarida belgilanadi.

149. O’zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan tashkiliy-huquqiy shakllaridan va idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar barcha professional ta’lim muassasalari har chorak yakuni bo‘yicha o‘quvchilar harakati va faoliyat ko‘rsatayotgan rahbar hamda o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi ustalari to‘g‘risida statistik ma’lumotlarni tegishli Kasb-hunar ta’limini rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalariga va boshqarmalar Vazirlikka taqdim etadi.

150. Professional ta’lim muassasalarini qayta tashkil etish yoki tugatishda mazkur professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarini Vazirlik tomonidan boshqa professional ta’lim muassasalariga o‘tkazish va amaldagi ta’lim dasturlari asosida o‘qishni tamomlashga sharoit yaratish choralari ko‘riladi.

151. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjalari muvofiq javob beradilar.

**Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagи 466-son qaroriga
2-ILOVA**

Boshlang‘ich professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar maktablarining

NAMUNAVIY USTAVI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Ustav boshlang‘ich professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar maktablarining maqomi, asosiy maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatları, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Kasb-hunar maktabi — Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta’lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang‘ich professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta’lim muassasasi hisoblanadi.

3. Kasb-hunar maktabi o‘z faoliyatini O’zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa qonunchilik hujjalari hamda ushbu Ustav asosida amalga oshiradi.

4. Kasb-hunar maktabini moliyalashtirish O’zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

5. Kasb-hunar maktablari yuridik shaxs hisoblanadi, o‘zining mustaqil balansiga, alohida mol-mulkiga, O’zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan, nomi davlat tilida yozilgan muhrga, shtampga, davlat namunasidagi blankalarga, Moliya vazirligining G‘aznachiligidagi va uning

hududiy bo‘limlarida shaxsiy hisobvaraqlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi va boshqa hisobvaraqlariga, rekvizitlarga ega bo‘lgan, o‘z nomidan shartnomalar tuzadigan, mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarni amalga oshiradigan, yuklangan majburiyatlarni bajaradigan hamda sud, arbitraj organlarida da’vogar va javobgar bo‘ladigan ta’lim muassasasi hisoblanadi.

6. Kasb-hunar maktablarining rasmiy nomlanishi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi: “....kasb-hunar maktabi”, qisqartirilgan nomi — “..KHM”;

b) ingliz tilida:

to‘liq nomi: “..... vocational school”, qisqartirilgan nomi — “...VSc”;

v) rus tilida:

to‘liq nomi: “...professionalnaya shkola”, qisqartirilgan nomi — “...PSH”.

7. Kasb-hunar maktabining joylashgan joyi (pochta manzili): pochta indeksi, viloyati (shahar), _____ tumani, ____-mavze, ko‘cha nomi,- “____”-uy.

2-bob. Kasb-hunar maktablarining asosiy maqsad va vazifalari

8. Kasb-hunar maktablarining asosiy maqsadi:

umumta’lim muassasalarining 9-sinfi bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta’lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta’lim shaklida kadrlar tayyorlashni amalga oshirish;

o‘quvchilarni tanlagan kasb bo‘yicha zamonaviy talablarga javob beruvchi, puxta bilim, amaliy ko‘nikma va malakaga hamda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, intellektual jihatdan yetuk kadrlar etib tayyorlashdan iborat.

9. Quyidagilar kasb-hunar maktablarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

iqtisodiyot soha va tarmoqlaridagi zarur sohaviy kasb-hunar bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llay oladigan mutaxassislar tayyorlash;

egallagan kasb-hunar bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beradigan, sifatli bilim olishni va kasbiy tayyorgarlikni ta’minlaydigan ta’lim dasturi asosida o‘qitish;

tanlab olingan kasb-hunarni egallash jarayonida o‘quvchilarning kasbiy layoqat, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

Davlat ta’lim standartlari talablariga ko‘ra o‘quvchilarda malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish;

ta’lim jarayoni uchun zarur moddiy — texnika, o‘quv — metodik bazani yaratish va o‘quv jarayoniga yuqori ish tajribasiga ega bo‘lgan amaliyotchi mutaxassislarni jalb etib borish;

kasb-hunarga tayyorlash tizimi va mazmunini jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat va zamonaviy innovatsion texnika yutuqlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish;

o‘quvchilarda vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash, xalqning milliy, madaniy, tarixiy an’analariiga hurmat, Vatan bilan g‘ururlanish va iftixon tuyg‘usini shakllantirish;

o‘quvchilarni ma’naviy — axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullaridan foydalangan holda kamol toptirish;

o‘qituvchi, ta’lim oluvchilarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, ularning bilim olishi, turmushi va dam olishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish.

3-bob. Kasb-hunar maktablarining huquq va majburiyatlar

10. Kasb-hunar maktabi:

O‘zbekiston Respublikasi hududida vakolati doirasida o‘z nomidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar va boshqa hujjatlarni tuzish;

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqilanmagan va mazkur Ustavga zid bo‘lmagan faoliyatni amalga oshirish;

ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish maqsadida o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida tanlovlar tashkil etish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktabi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

11. Kasb-hunar maktabi:

O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi**, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi **Qonuni**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim-tarbiya sohasidagi farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining normativ hujjatlarida belgilangan vazifalarni bajarishi;

Davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejasi va o‘quv dasturlari asosida sifatli kasb-hunar ta’limini berishi;

kasb-hunar maktabi axborot — kutubxona texnologiyasi fondi umumiy o‘quvchilar sonini hisobga olgan holda zamonaviy talabga javob beradigan darsliklar va o‘quv-metodik adabiyotlar (shu jumladan, badiiy adabiyotlar) majmui bilan yetarli darajada ta’milanishini tashkil etishi;

kasb-hunar maktabi o‘quvchilarida yuksak ma’naviy — axloqiy va milliy o‘zlikni anglash kabi sifatlarni shakllantirishi;

kasb-hunar maktabi o‘qituvchilari va ishlab chiqarish ta’limi ustalari malakasini oshirish, tajriba almashinuvini tashkil etish va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi;

ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilishi;

pedagogik faoliyatning sifati, ijtimoiy maqomi, nufuzi va obro‘-e’tiborini oshirish borasida faoliyat ko‘rsatishi;

mehnat muhofazasi talablariga javob beradigan ta’lim-tarbiya va mehnat sharoitlarini yaratishi zarur.

Kasb-hunar maktabi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

4-bob. Ta’lim oluvchilar

12. Kasb-hunar maktabiga o‘qishga qabul qilingan fuqaro ushbu ta’lim muassasasi o‘quvchisi hisoblanadi.

13. Kasb-hunar maktabi o‘quvchilariga o‘quvchilik guvohnomasi beriladi.

14. Kasb-hunar maktabi o‘quvchilari:

bilim olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanib, tegishli kasblar bo‘yicha zamonaviy ilm, fan-texnika taraqqiyoti rivojlanishiga mos nazariy va amaliy bilim olish;

ta’lim-tarbiya jarayoni davomida o‘quv-texnika jihozlari va vositalaridan, fan kabinetlari axborot-kutubxonasi fondidan, axborot-kutubxona o‘quv zali va boshqa o‘quv, yordamchi xonalardan, sport majmualari, kasb-hunar maktabiga qarashli tibbiy va texnik jihozlardan bepul foydalanish;

tuman, shahar, hudud va respublika miqyosida o‘tkaziladigan turli ko‘rik-tanlovlар, sport musobaqalari, amaliy seminarlar, konferensiyalarda ishtirok etish;

kasb-hunar maktabida tashkil etilgan turli tadbirdirlarda va to‘garaklarda qatnashish;

kasb-hunar maktabi Yoshlar ittifoqining boshlang‘ich tashkilotlariga saylash va saylanish, ta’lim-tarbiya jarayoniga taalluqli masalalar yuzasidan vakolati doirasida takliflar kiritish, shuningdek, o‘quvchilar davomati, ularning ichki tartib-qoidalarga rioya etishi va boshqa masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktabi o‘quvchilari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

15. Kasb-hunar maktabi o‘quvchilari:

ta’lim-tarbiya jarayonida kasb-hunar maktabi Ustaviga, ichki tartib-qoidalalariga, odob-axloq, kiyinish va o‘quvchi-yoshlar uyida yashash qoidalalariga qat’iy rioya qilishga;

o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarda to‘liq ishtirok etish, fanlar bo‘yicha o‘quv dasturi asosida bilimlarni muntazam o‘zlashtirib borish, o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalari tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish hamda darslarga tayyorgarlik ko‘rishga;

ta’lim-tarbiya jarayoni davomida o‘quv-texnika jihozlari va vositalaridan, fan kabinetlari, axborot — kutubxona fondidan, o‘quv zali va boshqa o‘quv, yordamchi xonalardan, sport majmualari, kasb-hunar maktabiga qarashli jihozlardan ehtiyyotkorlik bilan foydalanishga;

o‘quv rejasida belgilangan muddatlarda amaliyotlarni to‘liq o‘tashga;

fan kabinetlari, axborot-kutubxona o‘quv zali va sport zalida, oshxona, yotoqxona va ustaxonalarda sanitariya-gigiyena, texnika va yong‘in xavfsizligi talablariga qat’iy amal qilishga;

kasb-hunar maktabi hududida uyali telefonlardan foydalanishni tartibga soluvchi tegishli ichki tartiblarga rioya qilishga majburdir.

Kasb-hunar maktabi o‘quvchilari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

16. O‘qishda erishgan yutuqlari, ijodiy faoliyati va jamoat ishlarida faol qatnashgan o‘quvchilarga rag‘batlantirishning turli shakllari qo‘llaniladi.

17. Ichki tartib va odob-axloq qoidalarini buzgan hamda huquqbazarlik harakatlarini sodir etgan o‘quvchilarga nisbatan intizomiy jazo choralar qo‘llaniladi.

5-bob. O‘quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ish

18. O‘qituvchilar, ish beruvchilar, o‘quvchilar ta’lim jarayonining qatnashchilari hisoblanadi.

19. Kasb-hunar maktabida:

ta’lim berish muddati 2 yil bo‘lib, ta’lim kunduzgi shaklda amalga oshiriladi;

o‘quvchilar o‘qitish kurslari va tili bo‘yicha guruhlarga, o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha esa bo‘limlarga birlashtiriladi;

guruhlarda o‘quvchilar soni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan me’yorlar asosida shakllantiriladi;

o‘quv yilining boshlanishi, tugallanishi, haftalik yuklama, ta’tillarning muddati, davomiyligi, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayoni yakunlarini belgilash shakllari, amaliyot turlari va yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi hamda ta’lim jarayoniga tegishli boshqa talablar qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan o‘quv rejalar qo‘shqa normativ hujjatlar asosida belgilanadi;

kasb-hunar maktabida barcha turdagji o‘quv mashg‘ulotlari davomiyligi tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

20. Ta’limni tashkil etish davlat ta’lim standartlari asosida ishlab chiqilgan ta’lim dasturlari (malaka talabi, o‘quv rejasini va o‘quv dasturlari) asosida belgilanadi.

21. O‘quvchilarning nazariy va amaliy ko‘nikmalari normativ hujjatlarda belgilangan tartibda aniqlashtiriladi.

22. Kasb-hunar maktabida o‘qitish kursi tugagandan keyin nazoratlarning yakuniy natijalari asosida o‘quvchini navbatdagi kursga o‘tkazish, kursda qoldirish va o‘qishni ko‘chirish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. O‘quvchilarni kursdan kursga o‘tkazish, kursda qoldirish kasb-hunar maktabi pedagogik kengashining qarori va direktorning buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

23. O‘quvchilarni kasb-hunar maktabida o‘qitish ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan o‘zaro hamkorligi asosida amalga oshiriladi.

24. Kasb-hunar maktabi o‘quvchilarining korxona va tashkilotlarda tizimli asosda ishlab chiqarish va malakaviy amaliyot o‘tashi uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

25. O‘quv rejasini va fan dasturlarining barcha talablarini bajargan o‘quvchi kasb-hunar maktabi pedagogik kengashining qaroriga asosan direktorning buyrug‘i bilan Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlariga qo‘yiladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi amaldagi normativ hujjatlarga asosan yoki “Amaliy-ko‘rgazmali” imtihon topshirish shaklida o‘tkaziladi.

26. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan ta’lim olgan mutaxassisligi (kasbi) va egallagan malakasi (malakalar) ko‘rsatilgan holda davlat namunasidagi diplom beriladi.

27. Diplomga o‘zlashtirilgan fanlar ro‘yxati, o‘tilgan soatlar hajmi, ularni o‘zlashtirish darjasini (baholar) va Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari ko‘rsatilgan qo‘srimcha varaq ilova qilinadi.

28. Kasb-hunar maktabini tamomlaganlik to‘g‘risidagi diplom egallangan bilim va kvalifikatsiyani mehnat faoliyatida amalga oshirish huquqini beradi.

29. O‘quv-metodik, ilmiy-metodik va tajriba ishlarini amalga oshirish maqsadida kasb-hunar maktabida fanlar bo‘yicha metodik birlashma(uyushma)lar tashkil qilinadi.

30. O‘quv jarayoni shakli ilmiy asoslangan innovatsion vosita va o‘qitish usullarini tanlash asosida tashkil etiladi.

31. Kasb-hunar maktabida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar umumbashariy qadriyatlarga va milliy an’analarga asoslanadi:

kasb-hunar maktabida vatanparvarlik va milliy mustaqillik g‘oyalariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa ko‘sha oladigan shaxsni tarbiyalash o‘quv jarayoni bilan uzviy ravishda “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi, Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti, shaxsning ijodiy faolligini shakllantiruvchi fondlarning faol ishtiroki bilan amalga oshiriladi;

yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy-madaniy, tarixiy an’analarga, urf-odatlariga asoslangan tarbiyaviy ishlarning turli shakllarini ommalashtirish maqsadida kasb-hunar maktabining veb-sayti va ijtimoiy sahifalarini yaratish yo‘lga qo‘yiladi;

o‘quvchilarning o‘z intellektual darajasini oshirishlari uchun badiiy adabiyotlarni o‘qishga qiziqtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ‘ibot ishlarini olib borish yangi adabiy kitoblarning taqdimotini uyushtirish va targ‘ib qilish orqali amalga oshiriladi;

yosh avlodni ma’naviy-axloqiy, milliy g‘oyalarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mustaqil dunyoqarashga va fikrlashga ega bo‘lgan ma’naviy boy va har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishda milliy-madaniy, tarixiy an’analarga, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy ishlarning turli xil shakllari qo‘llaniladi.

6-bob. Ta’lim muassasasini boshqarish

32. Kasb-hunar maktabiga O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vaziri tomonidan tayinlangan direktor rahbarlik qiladi.

Kasb-hunar maktabi faoliyatini boshqarish direktor tomonidan amalga oshiriladi.

Direktor:

kasb-hunar maktabining faoliyatini yuritishga shaxsan javob beradi;

davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, boshqa tashkilotlar bilan munosabatlarda Kasb-hunar maktabi nomidan ish yuritadi;

tashabbuskor o‘qituvchilar, ishlab chiqarish ta’limi ustalari va xodimlari mehnatini moddiy rag‘batlantirish choralarini ko‘radi;

o‘z vakolati doirasida xodimlar tomonidan ijro etilishi shart bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi;

o‘z vakolati doirasida boshqa funksiyalarni bajaradi.

Direktor ma’muriyat faoliyati natijalari bo‘yicha pedagogik kengash va Kasb-hunar ta’limini rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi hamda vazirlikka hisobot beradi.

33. Kasb-hunar maktabining oliy organi Pedagogik kengash hisoblanadi.

Pedagogik kengash:

kasb-hunar maktabini rivojlantirishning asosiyo yo‘nalishlarini, boshlang‘ich professional ta’limga ega kadrlar tayyorlash va tarbiyalash sifatini oshirish va takomillashtirishni;

o‘quvchilarni qabul kilish, kursdan kursga o‘tkazish va qoldirish masalalarini muhokama qiladi hamda tegishli qarorlar qabul qiladi;

o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining ijodiy tashabbuskorligini oshirish, ularning pedagogik tajribasini ommalashtirish bo‘yicha malaka oshirish ishlarining tashkil etilishini muhokama qiladi;

tegishli normativ hujjalalar talablariga muvofiq o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalariga kasbiy toifa berish hamda bazaviy ta’rif stavkasiga belgilangan ustama haq to‘lovlarini belgilash to‘g‘risidagi masalalarini muhokama qiladi va tegishli toifalarga tavsiya beradi;

Davlat attestatsiya komissiyasi va qabul komissiyasi hisobotini muhokama qiladi;

Pedagogik kengash tarkibiga kasb-hunar maktabi direktori, uning o‘rinbosarlari, o‘qituvchilar, ishlab chiqarish ta’limi ustalari, psixolog, axborot-kutubxona bo‘yicha mutaxassis

kiradi. Pedagogik kengash tarkibiga zaruratga ko‘ra ishlab chiqarish korxonalari va ish beruvchilarning vakillari kiritilishi mumkin. Direktor Pedagogik kengash raisi hisoblanadi.

34. Pedagogik kengash majlislari ikki oyda kamida bir marta o‘tkaziladi, zarur hollarda navbatdan tashqari Pedagogik kengash majlisi o‘tkazilishi mumkin. Kengash qarori umumiy, ochiq ovoz berish orqali qabul kilinadi. Pedagogik kengash qarorlari direktorning buyrug‘i bilan kuchga kiradi.

35. Kasb-hunar maktabi shtatlari jadvali belgilangan tartibda ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi hamda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

36. Kasb-hunar maktabida Pedagogik kengash, metodik kengash, ota-onalar kengashi tuziladi va faoliyat yuritadi.

37. Kasb-hunar maktabi tarkibida kasaba uyushmasi, xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilot, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, murabbiylar kengashi va kasb-hunar maktabidagi ta’lim-tarbiya jarayoniga daxldor bo‘lgan boshqa jamoat tuzilmalari tashkil etilishi mumkin.

38. Kasb-hunar maktabida fan kafedralari tashkil etiladi.

Tashkil etilgan kafedralar ular faoliyati to‘g‘risidagi nizomlar bilan tartibga solinadi.

39. Kasb-hunar maktabi o‘qituvchilari va ishlab chiqarish ta’limi ustalari bilan hamkor tashkilotlar o‘rtasida ta’lim sifatini oshirish borasida hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi.

7-bob. Pedagog xodimlar, o‘quv-tarbiyaviy xodimlar

40. Tegishli oliy ma’lumotga, kasbiy tayyorgarlikka hamda yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar kasb-hunar maktabida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

41. Pedagoglarni ishga qabul qilish, ularning o‘quv yuklamasini belgilash qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

42. O‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining pedagogik faoliyat darajasini baholash uchun attestatsiyadan o‘tkazish va malaka toifasi berish tartibi tegishli normativ hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

43. O‘qituvchilarning pedagogik, psixologik, kasbiy mahoratini va malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash 4 yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

44. Guruhlarda o‘quv, ma’naviy — axloqiy, tarbiyaviy hamda tashkiliy ishlarga rahbarlik qilish uchun o‘qituvchilardan guruh murabbiylari tayinlanadi.

45. O‘qituvchilar, ishlab chiqarish ta’limi ustalari va xodimlarning huquqlari va burchlari, lavozim vazifalari, malaka talablari va majburiyatlari kasbga qo‘yilgan talablar bilan belgilanadi va O‘zbekiston Respublikasining mehnat haqidagi qonunlari asosida tartibga solinadi. O‘qituvchilar, ishlab chiqarish ta’limi ustalari va xodimlar pedagogik mehnatning, tarbiyaviy va ilmiy jarayonning yuqori samara berishiga, o‘quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodiy qobiliyat, zarur kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga, kasb-hunar maktabi Ustaviga rioya qilishga majbur.

46. O‘qituvchi, ishlab chiqarish ta’limi ustalari va xodimlar O‘zbekiston Respublikasining mehnat haqidagi qonunlari asosida lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

47. O‘quv-tarbiya jarayoni sifati oshishiga aniq shaxsiy hissa qo‘shayotgan, yuksak kasb mahoratiga ega bo‘lgan;

o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalar va ijodiy faoliyatni rivojlantirishdagi xissasi uchun;

o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining ilmiy-tadqiqotchilik ishlaridagi faolligi uchun;

ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy va jamoat hayotida faol ishtiroki uchun o‘qituvchi, ishlab chiqarish ta’limi ustalari va xodimlar rag‘batlantiriladi.

8-bob. Jamoat tashkilotlari

48. Kasb-hunar maktabida o‘quvchi, o‘qituvchi, ishlab chiqarish ta’limi ustalari, ma’muriy va yordamchi xodimlarni birlashtiruvchi jamoat tashkilotlari faoliyat ko‘rsatadi. Jamoat tashkilotlarining faoliyati amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

49. Yoshlar ittifoqining boshlang‘ich tashkiloti o‘quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi.

Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkilotining maqsad va vazifalari kasb-hunar maktabi yoshlari birlashtirish, sog‘lom turmush tarzi asosida tarbiyalash, jamiyatda munosib o‘rin egallashga ko‘maklashish, ularning manfaatlarini har tomonlama himoya qilishdan iboratdir.

50. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi [Qonunida](#) belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmasi qo‘mitasi kasb-hunar maktabi xodimlari va o‘quvchilarining ko‘ngilli jamoat birlashmasi sifatida e’tirof etiladi.

Kasaba uyushmasi qo‘mitasi kasaba uyushmalari to‘g‘risidagi va boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan ish ko‘radi.

9-bob. Kasb-hunar maktabining mol-mulki va mablag‘lari

51. Kasb-hunar maktabi o‘zining moliya–xo‘jalik faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiradi.

52. O‘qituvchi, ishlab chiqarish ta’limi ustalari, xodimlarning ish haqi, sifatli faoliyat uchun ularni rag‘batlantirish miqdori va ish xaqiga ustamalar qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

53. Moliyaviy mablag‘lar kasb-hunar maktabining tasarrufida bo‘ladi va ulardan qonunchilikda belgilangan tartibda Ustavda belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida foydalaniлади.

54. Kasb-hunar maktabining obyektlari va mol-mulkidan o‘quv mashg‘ulotlari davrida tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida foydalaniшга yo‘l qo‘yilmaydi.

55. Fan kabinetlari, ustaxona va boshqa obyektlarning o‘quv-metodik va texnik jihozlanishi namunaviy normativlar bilan belgilanadi.

56. Kasb-hunar maktabining mol-mulkidan samarali va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda foydalaniш uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq direktor to‘liq javob beradi.

57. Kasb-hunar maktabi o‘z moliyaviy faoliyatini amalga oshirish uchun amaldagi qonunchilik hujjatlariga binoan buxgalteriya va statistika hisobini yuritadi, moliyaviy faoliyatni muntazam tahlil qiladi hamda mablag‘lardan maqsadli foydalaniшni ta’minlaydi, moliyaviy va statistik hisobotlarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda tegishli organlarga taqdim etadi.

58. Kasb-hunar maktabining moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

10-bob. Qayta tashkil etish va tugatish

59. Kasb-hunar maktabi qonunda belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan tashkil qilinadi va tugatiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagи 466-son [qaroriga](#)
3-ILOVA

O‘rta professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning

NAMUNAVIY USTAVI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Ustav o‘rta professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning maqomi, asosiy maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatları, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Kollejlар — Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta’lim dasturlari asosida o‘rta professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta’lim muassasalari hisoblanadi.

3. Kollej o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#) va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa qonunchilik hujjatlari hamda ushbu Ustav asosida amalga oshiradi.

4. Kollejlar tegishli vazirlik, idora va tashkilotlarning tizimidagi tashkiliy tuzilma hisoblanadi va faoliyatlari ularning mablag'i asosida moliyalashtiriladi.

Tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar kollej o'quvchilarining kasbiy ta'lim jarayonida amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda ko'maklashadi, mehnat bozorida Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi mutaxassislarga (keyingi o'rnlarda – mutaxassislar) bo'lган ehtiyojni aniqlaydi, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash choralarini ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar kollejlarda ta'lim jarayonida davlat siyosatini yuritadi va ularga o'quv-metodik rahbarlik qiladi.

5. Kollej yuridik shaxs hisoblanadi, o'zining mustaqil balansiga, alohida mol-mulkiga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va nomi davlat tilida yozilgan muhrga, shtampga, davlat namunasidagi blankalariga, Moliya vazirligining G'aznachiligidagi va uning hududiy bo'limlarida shaxsiy hisobvaraqlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi va boshqa hisobvaraqlarga, rekvizitlarga ega bo'lgan, o'z nomidan shartnomalar tuzadigan, mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarni amalga oshiradigan, yuklagan majburiyatlarni bajaradigan hamda sud, arbitraj organlarida da'vogar va javobgar bo'ladigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

6. Kollejning rasmiy nomlanishi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi: " ", qisqartirilgan nomi — " " ;

b) ingliz tilida:

to'liq nomi: " ", qisqartirilgan nomi — " " ;

v) rus tilida:

to'liq nomi: " ", qisqartirilgan nomi — " " .

7. Kollejning joylashgan joyi (pochta manzili): pochta indeksi, viloyati (shahar), tuman, - mavze, - ko'chasi, " "-uy.

2-bob. Kollejlarning asosiy maqsad va vazifalari

8. Kollejlarning asosiy maqsadi:

kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3-darajasiga mos ta'lim dasturlarini tamomlagan, kamida umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar hisobidan "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yilgacha muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlashdan;

ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlash borasida sohaga doir ilmiy, metodik tadqiqotlarni olib boradi, pedagog xodimlarning ilmiy tadqiqotlar olib borishini qo'llab-quvvatlashdan;

o'quvchilarni tanlagan kasb yoki mutaxassisligi bo'yicha zamонавиу талабларга javob beruvchi, puxta bilim, amaliy ko'nikma va malakaga hamda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, intellektual jihatdan yetuk kadrlar etib tayyorlashdan iborat.

9. Quyidagilar kollejlarning asosiy vazifalari hisoblanadi:

iqtisodiyotning soha va tarmoqlarida talab yuqori bo'lgan tor doiradagi va sohaviy mutaxassisliklar bo'yicha tizimli fikrlash, ish yuritish, zamонавиу axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan hamda xorijiy tillarni biladigan mutaxassislar tayyorlash;

egallagan kasbi va mutaxassisligi bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan, yuqori darajada sifatli bilim olishini va kasbiy tayyorlarlikni ta'minlaydigan Milliy professional va davlat ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitish;

sohadagi mutaxassislar va ishchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash;

tanlab olingan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash jarayonida o'quvchilarning kasbiy layoqat, ko'nikma va malakalarini oshirish;

mutaxassislarni tayyorlash tizimi va mazmunini jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat va zamонавиу innovatsion texnika yutuqlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish;

o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, xalqning milliy, madaniy, tarixiy an'analariga hurmat, Vatan bilan g'ururlanish va iftixon tuyg'usini shakllantirish;

o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullaridan foydalangan holda kamol toptirish;

davlat ta’lim standartlari talablariga ko‘ra o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

o‘qituvchi, ishlab chiqarish ta’limi ustalari, ta’lim oluvchilarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, ularning bilim olishi, turmushi va dam olishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish;

ta’lim jarayoni uchun zarur moddiy-texnika, o‘quv-metodik bazani yaratish va o‘quv jarayoniga yuqori ish tajribasiga ega bo‘lgan amaliyotchi mutaxassislarni jalb etib borish.

3-bob. Kollejlarning huquq va majburiyatları

10. Kollej:

O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z nomidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan vakolati doirasida shartnomalar va boshqa hujjatlar tuzish;

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan va mazkur Ustavga zid bo‘lmagan faoliyatni amalga oshirish;

ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish maqsadida o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida tanlovlar tashkil etish;

iqtisodiyot tarmoqlari, xo‘jalik va xizmat ko‘rsatish sohasida kadrlarga bo‘lgan real ehtiyoj asosida kadrlar tayyorlovchi qo‘srimcha kasblar va mutaxassisliklar, shartnomaga asosida qisqa muddatli o‘quv kurslari ochish;

to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushadigan mablag‘lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan tushgan mablag‘larni kollejning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga va ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy o‘quv-texnik vositalar, mebellar bilan ta’minalashga, kollej o‘qituvchilari va ishlab chiqarish ta’limi ustalari, xodimlarini ijtimoiy himoyalashga va ularning faoliyatini samaradorligini oshirishni rag‘batlantirishga sarflash.

kollej o‘quvchining kasbiy va tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, budgetdan tashqari mablag‘ ishlab topish maqsadida aholiga pullik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha turli sohalar bilan bog‘liq ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatini bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Kollej qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

11. Kollej:

O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi**, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi **Qonuni**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim-tarbiya sohasidagi farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va farmoyishlari, tegishli vazirlik, idoralar va tashkilotlarning hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va boshqa vakolatlari davlat organlarining normativ hujjatlarida belgilangan vazifalarini bajarishi;

kollejning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, budget mablag‘laridan samarali foydalanish hamda mablag‘ bilan ta’minalashning muqobil manbalarini, shu jumladan, tashkilotlar, homiylar mablag‘larini, xorijiy investitsiyalarni jalb etishi;

davlat ta’lim standartlari, malaka talabi, o‘quv rejasi va fan dasturlari asosida yuqori sifatli kasb-hunar ta’limini berishi;

kollej Axborot-kutubxona fondini umumiy o‘quvchilar sonini hisobga olgan holda zamonaviy talabga javob beradigan darsliklar va o‘quv-metodik adabiyotlar (shu jumladan, badiiy adabiyotlar) majmui bilan yetarli darajada muntazam ravishda to‘ldirib borishni ta’minalash va o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishi;

kollej o‘qituvchilari va ishlab chiqarish ta’lim ustalari malakasini oshirish, tajriba almashinuvini tashkil etish va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi;

ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilishi;

pedagogik faoliyatning sifati, ijtimoiy maqomi, nufuzi va obro‘-e’tiborini oshirish borasida faoliyat ko‘rsatishi;

mehnat muhofazasi talablariga javob beradigan ta’lim-tarbiya va mehnat sharoitlarini yaratishi zarur.

Kollej qonunchilik hujjalariiga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

4-bob. Ta'lim oluvchilar

12. Kollejga o‘qishga qabul qilingan fuqaro ushbu ta’lim muassasasi o‘quvchisi hisoblanadi.
13. Kollej o‘quvchilariga o‘quvchilik guvohnomasi beriladi.

14. Kollej o‘quvchilar:

bilim olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanib, tegishli kasblar va mutaxassisliklar bo‘yicha zamonaviy ilm, fan-texnika taraqqiyoti rivojlanishiga mos nazariy va amaliy bilim olish;

ta’lim-tarbiya jarayoni davomida o‘quv-texnika jihozlari va vositalaridan, fan kabinetlaridan Axborot-kutubxona fondidan, Axborot-kutubxona o‘quv zali va boshqa o‘quv, yordamchi xonalardan, sport majmualari, kollejga qarashli tibbiy va texnik jihozlardan bepul foydalanish;

kollej, tuman, shahar, respublika miqyosida o‘tkaziladigan turli ko‘rik tanlovlari, sport musobaqlari, amaliy seminarlar, konferensiyalarda ishtirok etish;

kollej Yoshlar ittifoqining boshlang‘ich tashkilotlariga saylash va saylanish, ta’lim-tarbiya jarayoniga taalluqli masalalar yuzasidan vakolati doirasida takliflar kiritish, shuningdek, o‘quvchilar davomati, ularni ichki tartib-qoidalarga rioya etishi va boshqa masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish huquqiga ega.

Kollej o‘quvchilar qonunchilik hujjalariiga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

15. Kollej o‘quvchilar:

ta’lim-tarbiya jarayonida kollej Ustaviga, ichki tartib-qoidalarga, o‘quv intizomiga, kiyinish qoidalariiga, o‘quvchi-yoshlar uyida yashash qoidalariiga qat’iy rioya qilishga;

fanlar bo‘yicha o‘quv dasturi asosida bilimlarni vijdonan va muntazam o‘zlashtirib borishga, o‘qituvchilar tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishga hamda darslarga mustaqil tayyorgarlik ko‘rishga;

ta’lim-tarbiya jarayoni davomida o‘quv-texnika jihozlari va vositalaridan, fan kabinetlari, Axborot-kutubxona fondidan, o‘quv zali va boshqa o‘quv, yordamchi xonalardan, sport majmualari, kollejga qarashli tibbiy va texnik jihozlardan ehtiyyotkorlik bilan foydalanishga;

o‘quv rejasida belgilangan muddatlarda o‘quv va malakaviy amaliyotlarni o‘tashga hamda amaliyot dasturlarida belgilangan vazifalarni bajarishga;

kollej hududida, fan kabinetlari, Axborot kutubxona o‘quv zali va sport zalida sanitariya-gigiyena, texnika va yong‘in xavfsizligi talablariga qat’iy amal qilishga hamda o‘quvchilar hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi, kollej mol-mulkiga moddiy zarar yetkazuvchi har qanday holatlar to‘g‘risida zudlik bilan ma’muriyatni xabardor qilishga;

to‘lov-kontrakt bo‘yicha majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarishga;

milliy qadriyatlar va urf-odatlarni hurmat qilishga, odob-axloq qoidalariiga rioya qilishga;

kollej hududida uyali telefonlardan foydalanishni tartibga soluvchi tegishli normativ hujjalari talablariga rioya qilishga majbur.

Kollej o‘quvchilar qonunchilik hujjalariiga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

16. O‘qishda erishgan yutuqlari, ijodiy faoliyati va kollejning jamoat ishlarida faol qatnashgan o‘quvchilarga rag‘batlantirishning turli shakllari qo‘llaniladi.

17. Kollej ichki tartib qoidalari, o‘quv intizomini buzgan hamda boshqa turdag‘i huquqiy javobgarliklarni keltirib chiqaruvchi nojo‘ya xatti-harakatlar sodir etgan o‘quvchilarga nisbatan intizomiy ta’sir choralar qo‘llaniladi.

5-bob. O‘quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ish

18. Kollejda o‘qituvchilar tarkibi, ish beruvchilar, o‘quvchilar ta’lim jarayonining qatnashchilarini hisoblanadilar.

19. Kollejda o‘qitish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

ta’limning demokratik xarakterda ekanligi — davlat ta’lim dasturlari doirasida ta’lim-tarbiya usullarini tanlashda kollejning mustaqilligi;

ta'limning insonparvarligi — shaxsning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;

ta'limning ijtimoiyligi — ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

ta'limning milliy yo'naltirilganligi — ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa millatlarning tarixi va madaniyatini hurmat qilish;

ta'lim va tarbiyaning uzlusizligi va uzviy bog'liqligi uyg'un olib borilishi;

yoshlarning kelgusida mehnat faoliyatini davom ettirishini ta'minlovchi yuqori darajadagi bilimlarni egallashi;

iqtidori yoshlarni aniqlash, ularga sifatli bilim olish uchun shart-sharoitlar yaratish.

20. Kollejda:

ta'lim berish 2 yilgacha muddatda kunduzgi, kechki, sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

kechki va sirtqi ta'lim shaklida o'qish muddati va semestrlar davomiyligi vakolathi davlat organlari tomonidan belgilangan me'yorlar asosida shakllantiriladi;

o'quvchilar o'qitish kurslari va tili bo'yicha guruhlarga, o'qitish yo'nalishi bo'yicha esa bo'limlarga birlashtiriladi;

guruhlarda o'quvchilar soni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan me'yorlar asosida shakllantiriladi;

o'quv yilining boshlanishi, tugallanishi, haftalik yuklama, ta'tillarning muddati, davomiyligi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayoni yakunlarini belgilash shakllari, amaliyot turlari va yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi hamda ta'lim jarayoniga tegishli boshqa talablar qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv rejalarini va boshqa normativ hujjatlar asosida belgilanadi;

kollejda barcha turdag'i o'quv mashg'ulotlari davomiyligi tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

21. Ta'limning mazmuni ta'lim dasturlari (o'quv rejasiga va o'quv dasturlari) asosida belgilanadi.

Mutaxassislarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar kasb standartlari va malaka talablari asosida belgilanadi.

22. O'quvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini reyting tizimi asosida baholash tegishli normativ-hujjatlarga muvofiq belgilanadi.

23. Kollejda o'qitish kursi tugagandan keyin nazoratlarning yakuniy natijalari asosida o'quvchini navbatdagi kursga o'tkazish, kursda qoldirish to'g'risida qaror qabul qilinadi. O'quvchilarni kursdan kursga o'tkazish, kursda qoldirish kollej pedagogik kengashining qaroriga asosan kollej direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Kursdan kursga shartli ravishda o'tkazishlarga yo'l qo'yilmaydi.

24. O'quvchilarni kollejda o'qitish ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan o'zaro hamkorligi asosida quyidagicha amalga oshiriladi:

kollej o'quvchilarining muassasa va tashkilotlarda tizimli asosda ishlab chiqarish va malakaviy amaliyot o'tashi uchun shart-sharoitlar yaratish;

bevosita ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayonlarida ishtirok etishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlamalarni qo'llab, kollej hamda muassasa va tashkilotlarning o'zaro yaqin hamkorligini ta'minlash.

25. O'quvchilarning o'quv, ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyoti kollejning amaldagi normativ hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

26. O'quv rejasida mayjud bo'lgan fanlar bo'yicha fan dasturlarini to'liq o'zlashtirgan o'quvchi kollej pedagogik kengashining qarori va direktorining buyrug'i bilan Yakuniy davlat

attestatsiyasi imtihonlariga qo‘yiladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi amalda bo‘lgan normativ hujjatlarga asosan o‘tkaziladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan ta’lim olgan mutaxassisligi (kasbi) va egallagan malakasi (malakalari) ko‘rsatilgan holda davlat namunasidagi diplom beriladi.

Diplomga o‘zlashtirilgan fanlar ro‘yxati, o‘tilgan soatlar hajmi, ularni o‘zlashtirish darajasi (baholar) va Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalarini ko‘rsatilgan qo‘sishma varaq ilova qilinadi.

27. Kollejni tamomlaganlik to‘g‘risidagi diplom olingan bilim, ko‘nikma va malakalarini mehnat faoliyatida qo‘llash huquqini beradi.

28. O‘quv-metodik, ilmiy-metodik va tajriba ishlarini amalga oshirish maqsadida kollej fan kafedralarini tashkil kiladi.

29. O‘quv jarayoni shakli ilmiy asoslangan innovatsion vosita, integratsiyalashgan dasturlar va o‘qitish usullarini tanlash asosida tashkil etiladi.

30. O‘quv jarayoniga yo‘nalishlar bo‘yicha olim va mutaxassislar jalg qilinadi. Kollejda o‘qituvchilarning o‘quv-metodik va ilmiy ijod qilishlari uchun sharoit yaratiladi va rag‘batlantiriladi.

31. Kollejda ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar umumbashariy qadriyatlarga va milliy an’analarga asoslanadi:

kollejda vatanparvarlik va milliy mustaqillik g‘oyalariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa ko‘sha oladigan shaxsni tarbiyalash o‘quv jarayoni bilan uzviy ravishda “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi, Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti, shaxsning ijodiy faolligini shakllantiruvchi fondlarning faol ishtiroki bilan amalga oshiriladi;

yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy-madaniy, tarixiy an’analarga, urf-odatlariga asoslangan tarbiyaviy ishlarning turli shakllarini ommalashtirish maqsadida kollejning veb-sayti va ijtimoiy sahifalarini yaratish yo‘lga qo‘yiladi;

o‘quvchilarning o‘z intellektual darajasini oshirish badiiy adabiyotlarni o‘qishga qiziqtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ‘ibot ishlarini olib borish, yangi adabiy kitoblarning taqdimotini uyuştirish va targ‘ib qilish orqali amalga oshiriladi;

kollej o‘quvchilarida muloqot madaniyatining zamonaviy shakllarini yaratish maqsadida tegishli mutaxassislarni jalg qilgan holda bahs-munozaralar va davra suhbatlari uyuştiriladi;

chet tillaridagi badiiy adabiyotlar, ilmiy materiallarni o‘rganish va ta’lim-tarbiyaga tatbiq etish maqsadida videoroliklar, bukletlar, flayerlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi;

kollejda yosh avlodni ma’naviy-axloqiy, milliy g‘oyalarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mustaqil dunyoqarashga va fikrlashga ega bo‘lgan ma’naviy boy va har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishda milliy-madaniy, tarixiy an’analarga, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy ishlarning turli xil shakllari qo‘llaniladi.

32. O‘quvchilarda ta’lim muassasasi va tanlagan kasbni egallash bo‘yicha berilgan imkoniyatlardan g‘ururlanish hissini oshirishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqiladi.

33. Kollejda o‘quv yilining birinchi kuni vazirlik va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida o‘quvchilarning tantanali saflanishi, O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘ini olib chiqish, Davlat madhiyasini ijro etish bilan boshlanadi va belgilangan tadbir asosida davom ettiriladi.

34. Birinchi mashg‘ulot O‘zbekiston Respublikasining milliy mustaqillik g‘oyalariga bag‘ishlanadi.

6-bob. Ta’lim muassasasini boshqarish

35. Kollej faoliyatini boshqarish direktor tomonidan amalga oshiriladi. Kollej direktori tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi. Uning lavozim majburiyatlari qonunchilik hujjatlariga asosan belgilanadi.

36. Kollej direktori:

umumiy rahbarlik qiladi, kollejning joriy faoliyatini tashkil etadi va o‘z zimmasiga yuklangan vazifalar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, boshqa tashkilotlar bilan munosabatlarda kollej nomidan ish yuritadi;

tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar bilan kelishgan holda kollejning shtatlar jadvalini, uni saqlash uchun xarajatlar smetasini tasdiqlaydi;

o‘z funksional majburiyatlarini samarali bajarayotgan, kollej oldiga qo‘yilgan vazifalarga erishishga salmoqli hissa qo‘sghan yuksak professional, tashabbuskor xodimlar mehnatini moddiy rag‘batlantirish choralarini ko‘radi;

o‘z vakolati doirasida xodimlar tomonidan ijro etilishi shart bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi;

kollejga yuklangan vazifalarga muvofiq boshqa funksiyalarni bajaradi.

37. Direktor kollejning mol-mulki, moddiy bazasi va mablag‘ining taqsimotchisi hisoblanadi, mehnat va xo‘jalik shartnomalari tuzadi, ishonchnomalar beradi, banklarda hisobvaraqlarini ochadi.

38. Kollej direktorining o‘rinbosarlari bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik va idora bilan kelishgan holda professional ta’lim muassasalari direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

kollejning bosh buxgalteri va o‘quv bo‘limlari boshliqlari kollej direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi;

Direktor ma’muriyat faoliyati natijalari bo‘yicha ilmiy-pedagogik kengash va yuqori tashkilotlarga hisobot beradi.

39. Kollejning oliy organi Pedagogik kengash hisoblanadi.

Pedagogik kengash:

kollejni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini, mutaxassislar tayyorlash va tarbiyalash sifatini oshirish va takomillashtirishni, kollejga qo‘srimcha mablag‘larni jalb qilishni va moddiy-texnika bazani mustahkamlashni belgilaydi;

ta’lim mazmunining turli variantlarini muhokama kilish va tanlab olish (o‘quv rejalar, dasturlar, darsliklar), o‘quv-tarbiya jarayonining shakl va usullarini, ularni amalga oshirish usullarini, o‘quvchilarni qabul kilish, kursdan kursga o‘tkazish va qoldirish, chetlashtirish masalalarini muhokama etadi hamda tegishli qarorlar qabul kiladi;

o‘qituvchilarining ijodiy tashabbuskorligini oshirish, ularning pedagogik tajribasini ommalashtirish bo‘yicha malaka oshirish ishlarining tashkil etilishini muhokama qiladi;

tegishli normativ hujjatlar talablariga muvofiq o‘qituvchilarga kasbiy toifa berish hamda bazaviy ta’rif stavkasiga belgilangan ustama haq to‘lovlarini belgilash to‘g‘risidagi masalalarni muhokama qiladi va tegishli toifalarga tavsiya beradi;

kollejning bo‘limlari, Davlat attestatsiya komissiyasi va qabul komissiyasi hisobotini eshitadi va muhokama qiladi.

Pedagogik kengash tarkibiga kollej direktori, uning o‘rinbosarlari, bo‘lim boshliqlari, kafedra mudirlari, o‘qituvchilar, ishlab chiqarish ta’limi ustalari, psixolog, Axborot-kutubxona bo‘yicha mutaxassis kiradi. Kollej direktori Pedagogik kengash raisi hisoblanadi.

40. Pedagogik kengash majlislari ikki oyda kamida bir marta o‘tkaziladi, zarur hollarda navbatdan tashqari Pedagogik kengash majlisi o‘tkazilishi mumkin. Kengash qarori umumiy, ochiq ovoz berish orqali kabil kelinadi. Pedagogik kengash qarori kollej direktorining buyrug‘i bilan kuchga kiradi. Pedagogik kengash majlislarida tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar hamda ish beruvchi tashkilot vakillari kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

41. Kollejning shtatlari jadvali amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi hamda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

42. Kollejda Pedagogik kengash, metodik kengash, ota-onalar kengashi tuziladi va faoliyat yuritadi.

43. Kollej tarkibida kasaba uyushmasi, xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkilot, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, murabbiylar kengashi va kasb-hunar maktabidagi ta’lim-tarbiya jarayoniga daxldor bo‘lgan boshqa jamoat tuzilmalari tashkil etiladi.

44. Kollejda fan kafedralari tashkil etiladi.

Tashkil etilgan kafedralalar ular faoliyati to‘g‘risidagi Nizomlar bilan tartibga solinadi.

45. Kollejning o‘qituvchilarini va ishlab chiqarish ta’limi ustalari bilan hamkor korxona va tashkilotlar o‘rtasida ta’lim sifatini oshirish borasida hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi.

7-bob. Pedagog xodimlar, o‘quv-tarbiyaviy xodimlar

46. Tegishli oliy ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka hamda yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar kollejda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Sudning qaroriga asosan pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish ta'qiqlangan shaxslar bu ishga qo'yilmaydi.

47. Kollejga professor-o'qituvchilar, pedagoglar tarkibini ishga qabul qilish, ularning o'quv-pedagogik yuklamasini belgilash tegishli qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

48. O'qituvchilarning (o'quv fanlari va soatlar bo'yicha) boshqa o'qituvchilar o'rnida ishlashi tartibi tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

49. O'qituvchilarning pedagogik faoliyat darajasini baholash uchun attestatsiyadan o'tkazish va malaka toifasi berish tartibi tegishli normativ hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

50. O'qituvchilarning pedagogik, psixologik, kasbiy mahoratini va malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda va tartibda amalga oshiriladi.

51. Direktorning buyrug'i bilan o'qituvchilar zimmasiga o'quv fanlari bo'yicha kafedra mudirligi, tegishli o'quv fanlar bo'yicha mavjud o'quv xonasi mudirligi vazifasi yukanishi mumkin.

Guruhlarda o'quv, ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy hamda tashkiliy ishlarga rahbarlik qilish uchun o'qituvchilardan guruh murabbiylari tayinlanadi.

52. Kollejning o'qituvchi, ishlab chiqarish ta'llim ustalari va xodimlarining huquq va burchlari, lavozim vazifalari, malaka talablari va majburiyatlarini kasbga qo'yilgan talablar bilan belgilanadi va O'zbekiston Respublikasining mehnat haqidagi qonunlari asosida tartibga solinadi. O'qituvchi va xodimlar pedagogik mehnatning, tarbiyaviy va ilmiy jarayonining yuqori samara berishiga, o'quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodiy qobiliyat, zarur kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga, kollej Ustaviga rioya qilishga majbur.

53. Kollej xodimlarining huquq va majburiyatlarini uning Ustavi, direktor tomonidan tasdiqlangan Ichki mehnat tartibi qoidalari va lavozim yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

54. Kollejning o'quv-tarbiya jarayoni sifati oshishiga aniq hissa qo'shayotgan, yuksak kasb mahoratiga ega bo'lgan o'qituvchilar, ishlab chiqarish ta'llimi ustalari va xodimlarini rag'batlantirish quyidagi asoslarga ko'ra amalga oshiriladi:

o'qituvchilar tomonidan o'qitishning interfaol usullaridan foydalangan holda axborot texnologiyalarini qo'llab ta'llim berishning yuqori darajasiga erishish;

o'quvchilarda amaliy ko'nikmalar va ijodiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha mustaqil samarali ishslashni o'rgatish;

guruhlar murabbiylarining o'z vazifalarini sidqidildan bajarishi;

o'qituvchi-pedagoglarning ilmiy-tadqiqotchilik ishlari;

kollej ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy va jamoat hayotida faol ishtirok etish.

55. Kollejda o'qituvchi, o'quv-tarbiyaviy xodimlar mehnatini rag'batlantirish ishlab chiqilgan ichki lokal hujjatlar bilan belgilanadi.

8-bob. Jamoat tashkilotlari

56. Kollejda o'quvchi, o'qituvchi, ma'muriy va yordamchi xodimlarni birlashtiruvchi jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Jamoat tashkilotlarining faoliyati amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

57. Kollej o'quvchilarining Yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkiloti o'zini o'zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkilot bo'lib, yoshlarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi hamda oshkoraliq va adolat tamoyillari asosida ish yuritadi.

Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#) va tegishli qonunchilik hujjatlarini hamda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining Nizomi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining maqsad-vazifalari kollej yoshlarini birlashtirish, sog'lom turmush tarzi asosida tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rin egallashga ko'maklashish, ularning manfaatlarini har tomonlama himoya qilishdan iboratdir.

58. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi **Qonunida** belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmasi qo‘mitasi kollej xodimlari va o‘quvchilarining ko‘ngilli jamoat birlashmasi sifatida e’tirof etiladi.

Kasaba uyushmasi qo‘mitasi kasaba uyushmalari to‘g‘risidagi va boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan ish ko‘radi.

9-bob. Kollejning mol-mulki va mablag‘lari

59. Kollej o‘zining moliya-xo‘jalik faoliyatini budgetdan tashqari mablag‘lar doirasida amalga oshiradi. Kollej faoliyatini moliyalashtirish:

tegishli vazirlik, idora va tashkilotlarning budgetdan tashqari mablag‘lari;

o‘quvchilarni davlat buyurtmasi va to‘lov-shartnomalar asosida o‘qitishdan tushgan mablag‘lar;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

60. Kollej xodimlarining ish haqi, sifatli faoliyat uchun ularni rag‘batlantirish miqdori va ish xaqiga ustamalar qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

61. Kollejning moliyaviy mablag‘lari uning tasarrufida bo‘ladi va ulardan qonunchilikda belgilangan tartibda Ustavda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalaniladi.

62. Kollej fan kabinetlari va boshqa obyektlarning o‘quv-metodik va texnik jihozlanishi namunaviy normativlar bilan va ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

63. Kollejning mol-mulkidan samarali va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda foydalanilish uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq kollej direktori to‘liq javob beradi.

64. Kollej o‘z moliyaviy faoliyatini amalga oshirish uchun amaldagi qonunchilik hujjatlariga binoan buxgalteriya va statistika hisobini yuritadi, moliyaviy faoliyatni muntazam tahlil qiladi hamda mablag‘lardan maqsadli foydalanishni ta’minlaydi. Moliyaviy va statistik hisobotlarni tegishli organlarga taqdim etadi.

65. Kollejning moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

10-bob. Qayta tashkil etish va tugatish

66. Kollej qonunda belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan qayta tashkil qilinadi va tugatiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagи 466-son **qaroriga**
4-ILOVA

O‘rta maxsus professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlarning

NAMUNAVIY USTAVI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Ustav o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlarning maqomi, asosiy maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatları, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Texnikumlar — Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta’lim dasturlari asosida oliy ta’lim tizimi bilan integratsiyalashgan o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta’lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta’lim muassasalari hisoblanadi.

3. Texnikum o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, boshqa qonunchilik hujjatlari hamda ushbu Ustav asosida amalga oshiradi.

4. Texnikumlar tegishli vazirlik, idora va tashkilotlarning tizimidagi tashkiliy tuzilma hisoblanadi, faoliyati mahalliy va xorijiy grantlar, ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, ishlab chiqarish va

boshqa faoliyat turlaridan olingen daromadlar, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik mablag‘lari, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar mablag‘lari asosida moliyalashtiriladi.

Tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar texnikum o‘quvchilarini kasbiy ta’lim jarayonida amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda, mehnat bozorida Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi mutaxassislar (keyingi o‘rinlarda — mutaxassislar) bo‘lgan ehtiyojni aniqlashda, bitiruvchilarni ish bilan ta’minalashda ko‘maklashadi.

Oliy ta’lim muassasalari texnikumlarning idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar, ta’lim jarayoniga o‘quv-metodik ko‘maklashadi.

5. Texnikum yuridik shaxs hisoblanib, o‘zining mustaqil balansiga, alohida mol-mulkiga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va nomi davlat tilida yozilgan muhrga, shtampga, davlat namunasidagi blankalarga, Moliya vazirligining G‘aznachiligidagi va uning hududiy bo‘limlarida shaxsiy hisobvaraqlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi va boshqa hisobvaraqlariga, rekvizitlarga ega bo‘lgan, o‘z nomidan shartnomalar tuzadigan, mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarni amalga oshiradigan, yuklangan majburiyatlarni bajaradigan hamda sud, arbitraj organlarida da’vogar va javobgar bo‘ladigan ta’lim muassasasi hisoblanadi.

6. Texnikumning rasmiy nomlanishi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi: “ ”, qisqartirilgan nomi — “ ” ;

b) ingliz tilida:

to‘liq nomi: “ ”, qisqartirilgan nomi — “ ” ;

v) rus tilida:

to‘liq nomi: “ ”, qisqartirilgan nomi — “ ” .

7. Texnikumning joylashgan joyi (pochta manzili):, hudud, tuman (shahar), -mavze,- “ ”-uy.

2-bob. Texnikumlarning asosiy maqsad va vazifalari

8. Texnikumlarning asosiy maqsadi:

kadrlar tayyorlash Xalqaro tasniflagichning kamida 3 yoki 4-darajasiga mos ta’lim dasturlarini tamomlagan, umumiy o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar hisobidan “Hayot davomida ta’lim olish” prinsipi asosida shakllantirilgan guruhlarda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yildan kam bo‘limgan muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to‘lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlash;

kadrlar buyurtmasi asosida professional kasbiy malakaga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash:

Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta’lim dasturlari asosida oliy ta’lim tizimi bilan integratsiyalashgan o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlash;

o‘quvchilarni tanlangan mutaxassislik bo‘yicha zamonaviy talablarga javob beruvchi, puxta bilim, amaliy ko‘nikma va malakaga hamda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, intellektual jihatdan yetuk kadrlar etib tayyorlashdan iborat.

9. Quyidagilar texnikumlarning asosiy vazifalari hisoblanadi:

iqtisodiyot soha va tarmoqlarida talab yuqori bo‘lgan tor doiradagi va sohaviy mutaxassisliklar bo‘yicha tizimli fikrlash, ish yuritish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash ko‘nikmalariga ega hamda xorijiy tillarni biladigan mutaxassislar tayyorlash;

egallagan mutaxassislik bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beradigan, yuqori darajada sifatlari bilim olishni va kasbiy tayyorlarlikni ta’minalaydigan davlat ta’lim standartlari doirasida tanlangan mutaxassislik bo‘yicha o‘qitish;

tanlab olingen mutaxassislik bo‘yicha bir yoki bir necha kvalifikatsiyani egallash jarayonida o‘quvchilarning kasbiy layoqat, ko‘nikma va malakalarini oshirish;

mutaxassislarini tayyorlash tizimi va mazmunini jamiyat ehtiyojlardan, fan, madaniyat va zamonaviy innovatsion texnika yutuqlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish;

o‘quvchilarda vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash, xalqning milliy, madaniy, tarixiy an‘analaringa hurmat, Vatan bilan g‘ururlanish va iftixon tuyg‘usini shakllantirish;

o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullaridan foydalangan holda kamol toptirish;

davlat ta’lim standartlari talablariga ko‘ra o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan malaka va ko‘nikmalarni o‘quvchilar ongiga singdirish;

o‘qituvchi, ta’lim oluvchilarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, sog‘lom turmush tarzini joriy etish, ularning bilim olishi, turmushi va dam olishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish;

ta’lim jarayoni uchun zarur moddiy-texnika, o‘quv-metodik bazani yaratish va o‘quv jarayoniga yuqori ish tajribasiga ega bo‘lgan amaliyotchi mutaxassislarni jaib etib borish.

3-bob. Texnikumlarning huquq va majburiyatları

10. Texnikum:

O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z nomidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan vakolati doirasida shartnomalar va normativ-hujjatlar tuzish;

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan va ushbu Ustavga zid bo‘lmagan faoliyatni amalga oshirish;

ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish maqsadida o‘qituvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida tanlovlardan tashkil etish;

respublika iqtisodiyoti, xo‘jalik va xizmat ko‘rsatish sohasida mutaxassislarga bo‘lgan talab va real ehtiyojlar asosida belgilangan tartibda tegishli mutaxassislar tayyorlovchi qo‘sishimcha yo‘nalishlar, shartnoma asosida kasbga tayyorlovchi qisqa muddatli o‘quv kurslari ochish;

texnikum o‘quvchisining kasbiy va tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, budgetdan tashqari mablag‘ ishlab topish maqsadida aholiga pullik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha turli sohalar bilan bog‘liq ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanish;

to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushadigan mablag‘lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan tushgan mablag‘larni texnikumning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga va ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy o‘quv-texnik vositalar, mebellar bilan ta’minalashga, texnikum xodimlarini ijtimoiy himoyalashga va ularning faoliyat samaradorligini oshirishni rag‘batlantirishga sarflash huquqiga ega.

Texnikum qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

11. Texnikum:

O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi**, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi **Qonuni**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim-tarbiya sohasidagi farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va farmoyishlari, tegishli vazirlik, idoralar va tashkilotlarning hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va boshqa vakolatlari davlat organlarining normativ hujjatlarida belgilangan vazifalarni bajarishga;

texnikumning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, budget mablag‘laridan samarali foydalanish hamda mablag‘ bilan ta’minalashning muqobil manbalarini, shu jumladan, tashkilotlar, homiyalar mablag‘larini, xorijiy investitsiyalarni jaib etishga;

davlat ta’lim standartlari, malaka talabi, o‘quv reja va fan dasturlari asosida yuqori sifatli o‘rta maxsus professional ta’limni berishga;

texnikum axborot-kutubxona fondini umumiyligi o‘quvchilar sonini hisobga olgan holda zamonaviy talabga javob beradigan darsliklar va o‘quv-metodik adabiyotlar (shu jumladan, badiiy adabiyotlar) majmui bilan yetarli darajada muntazam ravishda to‘ldirib borishni ta’minalash hamda o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etishga;

texnikum o‘qituvchilari malakasini oshirish, tajriba almashinuvini tashkil etish va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga;

ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilishga;

pedagogik faoliyatning sifati, ijtimoiy maqomi, nufuzi va obro‘-e’tiborini oshirish borasida faoliyat ko‘rsatishga;

mehnat muhofazasi talablariga javob beradigan ta’lim-tarbiya va mehnat sharoitlarini yaratishga majbur.

Texnikum qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

4-bob. Ta’lim oluvchilar

12. Texnikumga o‘qishga qabul qilingan fuqaro ushbu ta’lim muassasasi o‘quvchisi hisoblanadi.

13. O‘qishda erishgan yutuqlari, o‘quv-ishlab chiqarish, ijodiy faoliyat va texnikumning boshqa ishlarida faol qatnashgan o‘quvchilarga moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishning turli xil shakllari qo‘llaniladi.

14. Texnikum o‘quvchilari:

professional ta’lim muassasasi faoliyatiga doir masalalarni muhokama va hal etishda bevosita yoki bilvosita (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlari orqali) ishtirok etish;

belgilangan tartibda professional ta’lim muassasalari ma’muriyatining buyruqlari ustidan shikoyat qilish;

ta’lim dasturlari bo‘yicha ta’limni davom ettirishini to‘xtatish bo‘yicha professional ta’lim muassasasi rahbariyatiga murojaat qilish;

axborot-kutubxona, professional ta’lim muassasasining o‘quv, ijtimoiy, davolash va boshqa bo‘linmalari xizmatlaridan ta’lim muassasasi ustavida belgilangan tartibda bepul foydalanish;

kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan turli ko‘rik tanlovlarda belgilangan tartibda ishtirok etish;

ish beruvchilar tomonidan tavsiya qilingan ish joylarida ishlash bo‘yicha murojaat qilish;

oliy ta’lim muassasasining tegishli yo‘nalishlarida ta’limni davom ettirish;

ta’lim olishda o‘rta maxsus professional ta’lim dasturida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan huquqlardan foydalanish huquqiga ega.

Texnikum o‘quvchilari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

15. Texnikum o‘quvchilari:

Davlat ta’lim standartlarida belgilangan talablarni o‘quvchilar belgilangan muddatlarda bajarishi hamda bilim va ko‘nikmalarini egallahsga;

uzrsiz sabablarga ko‘ra dars mashg‘ulotlarini qoldirmaslik;

ushbu Ustavga, Texnikumning ichki tartib-qoidalariga, odob-axloq qoidalariga hamda o‘quv intizomiga rioya qilishga;

texnikum binolari va uning mol-mulkini asrab-avaylashga;

to‘lov-kontrakt bo‘yicha majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarishga majbur.

Texnikum o‘quvchilari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

5-bob. O‘quv tarbiyaviy va ilmiy-metodik ish

16. Texnikumlarda idoraviy bo‘ysunuvidan qat‘i nazar o‘quv-metodik rahbarlik qilish hamda bu sohada davlat siyosatini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan amalgalashuviladi.

17. Texnikumda:

ta’lim berish kamida 2 yil muddatda kunduzgi, kechki, sirtqi ta’lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to‘lov-kontrakt asosida amalgalashuviladi;

kechki va sirtqi ta’lim shaklida o‘qish muddati va semestrlar davomiyligi vakolathli davlat organlari tomonidan belgilangan me’yorlar asosida shakllantiriladi;

o‘quvchilar o‘qitish kurslari bo‘yicha guruhlarga, o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha esa bo‘limlarga birlashtiriladi;

guruhlarda o‘quvchilar soni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan me’yorlar asosida shakllantiriladi;

o‘quv yilining boshlanishi, tugallanishi, haftalik yuklama, ta’tillarning muddati, davomiyligi, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayoni yakunlarini belgilash shakllari, amaliyot turlari va yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi hamda ta’lim jarayoniga tegishli boshqa talablar

qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv rejalarini va boshqa normativ hujjatlar asosida belgilanadi;

texnikumda barcha turdag'i o'quv mashg'ulotlari davomiyligi tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi;

texnikumda o'qitish kursi tugagandan keyin nazoratlarning yakuniy natijalari asosida o'quvchini navbatdagi kursga o'tkazish, kursda qoldirish, o'qishdan chetlashtirish to'g'risida qaror qabul qilinadi. O'quvchilarni kursdan kursga o'tkazish, o'qishdan chetlashtirish, kursda qoldirish ilmiy pedagogik kengashning qarori va texnikum direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi;

kursdan kursga shartli ravishda o'tkazishlarga yo'l qo'yilmaydi;

o'quvchilarni texnikumda o'qitish ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan o'zaro hamkorligi asosida quyidagicha amalga oshiriladi;

texnikum o'quvchilarining muassasa va tashkilotlarda tizimli asosda ishlab chiqarish va malakaviy amaliyot o'tashi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, ish beruvchilarni o'quv jarayoniga foydalilaniladigan o'quv-normativ xujjalarni ishlab chiqishga jalg etish;

bevosita ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayonlarida ishtiroy etishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni qo'llab, texnikum hamda muassasa va tashkilotlarning o'zaro yaqin hamkorligini ta'minlash;

o'quvchilarning o'quv, ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyoti belgilangan normativ hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi;

o'quv reja va fan dasturlarining barcha talablarini bajargan o'quvchi texnikum ilmiy pedagogik kengashining qarori va direktorning bo'yrug'i bilan Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlariga qo'yiladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi belgilangan normativ hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi;

Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan ta'lim olgan mutaxassisligi (kasbi) va egallagan malakasi (malakalari) ko'rsatilgan holda davlat namunasidagi diplom beriladi;

Diplomga o'zlashtirilgan fanlar ro'yxati, o'tilgan soatlar hajmi, ularni o'zlashtirish darajasi (baholar) va Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari ko'rsatilgan qo'shimcha varaq ilova qilinadi;

texnikumni tamomlaganlik to'g'risidagi diplom egallangan bilimlarni mehnat faoliyatida amalga oshirish huquqini beradi;

o'rta maxsus ta'lim dasturlarini muvoffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suxbat orqali olyi ta'lim muassasalarida 2-kursdan o'qishni davom ettirish xuquqiga ega bo'ladi;

o'quv-metodik, ilmiy-metodik va tajriba ishlarini amalga oshirish maqsadida texnikum fan kafedralarini tashkil kiladi;

o'quv jarayoni shakli ilmiy asoslangan innovatsion vosita va o'qitish usullarini tanlash asosida tashkil etiladi;

o'quv jarayoniga yo'nalishlar bo'yicha olim va mutaxassislar jalg qilinadi. Texnikumda o'qituvchilarning o'quv-metodik va ilmiy ijod qilishlari uchun sharoit yaratiladi va rag'batlantiriladi.

18. Texnikumda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar umumbashariy qadriyatlarga va milliy an'analarga asoslanadi.

Texnikumda:

vatanparvarlik va milliy mustaqillik g'oyalariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga qodir shaxsni tarbiyalash o'quv jarayoni bilan uzviy ravishda oila, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi va boshqa jamoat tashkilotlari ishtiroyida amalga oshiriladi;

yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy-madaniy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga asoslangan tarbiyaviy ishlarning turli shakllarini ommalashtirish maqsadida texnikumning veb-sayti va ijtimoiy sahifalarini yaratish yo'lga qo'yiladi;

o'quvchilarning o'z intellektual darajasini oshirishlari uchun badiiy adabiyotlarni o'qishga qiziqirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ'ibot ishlarini olib borish yangi adabiy kitoblarning taqdimotini uyushtirish va targ'ib qilish orqali amalga oshiriladi;

texnikum o‘quvchilarida muloqot madaniyatining zamonaviy shakllarini yaratish maqsadida tegishli mutaxassislarni jalg qilgan holda babs-munozaralar va davra suhbatlari uyuştiriladi;

chet tillaridagi badiiy adabiyotlar, ilmiy materiallarni o‘rganish va ta’lim-tarbiyaga tatbiq etish maqsadida videoroliklar, bukletlar, flayerlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi;

yosh avlodni ma’naviy-axloqiy, milliy g‘oyalarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mustaqil dunyoqarashga va fikrleshgaga ega bo‘lgan ma’naviy boy va har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishda milliy-madaniy, tarixiy an’analarga, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan tarbiyaviy ishlarning turli xil shakllari qo‘llaniladi;

o‘quvchilarda ta’lim muassasasi va tanlagan kasbni egallash bo‘yicha berilgan imkoniyatlardan g‘ururlanish hissini oshirishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqiladi;

o‘quv yilining birinchi kuni vazirlik, hokimiyat, hududiy kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi, oliy ta’lim muassasasi va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida o‘quvchilarning tantanali saflanishi, O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘ini olib chiqish, Davlat madhiyasini ijro etish bilan boshlanadi va belgilangan tadbir asosida davom ettiriladi;

birinchi mashg‘ulot O‘zbekiston Respublikasining milliy mustaqillik g‘oyalariiga bag‘ishlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligi, hududiy kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi rahbariyati va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi bilan birgalikda o‘quvchilar hamda ularning ota-onalari ishtirokida yoshlarga oid muhim masalalarni muhokama etish uchun muntazam ravishda uchrashuvlar o‘tkazib boriladi.

6-bob. Ta’lim muassasasini boshqarish

19. Texnikumni boshqarish direktor tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim muassasalari huzurida tashkil etilgan texnikumlar direktori rektor tavsiyasiga binoan bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik, idora va tashkilot rahbari tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Texnikum direktori:

texnikum faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi va texnikumga yuklangan vazifalar bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

o‘rinbosarlar vakolatlarini belgilaydi, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi, texnikumning tarkibiy bo‘linmasi rahbarlari vakolatlarini, ularning faoliyati uchun javobgarligini belgilaydi;

texnikum faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutysiysi** va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar, Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligi, buyruqlari va ko‘rsatmalari amalga oshirilishini tashkil etadi;

qonunchilik hujjatlariga asosan texnikum nomidan ish olib boradi, barcha tashkilotlarda uning vakili sifatida qatnashadi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi;

texnikum tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

texnikum o‘qituvchi va xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

texnikum tarkibiy bo‘linmalari rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

texnikum pedagogik xodimlari va o‘quvchilari uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi;

texnikumning tashkiliy va moliyaviy faoliyati masalalarini hal qiladi;

texnikumning mol-mulkiga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish bo‘yicha belgilangan tartibda qarorlar qabul qiladi;

texnikumning shtat jadvallari va xarajatlar smetasini tasdiqlaydi;

texnikum o‘qituvchilari va boshqa xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etadi, o‘rnak ko‘rsatgan texnikum xodimlariga unvonlar berish va davlat mukofotlari bilan taqdirlash to‘g‘risida takliflar kiritadi.

texnikum direktori qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

7-bob. Ta’lim muassasasining tuzilishi

20. Texnikum shtatlari jadvali amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi hamda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

21. Texnikumda Ilmiy pedagogik kengash, metodik kengash, ota-onalar kengashi, Jamoatchilik kengashi tuziladi va faoliyat yuritadi.

22. Texnikum faoliyatining asosiy masalalarini ko‘rib chiqish uchun texnikum ilmiy pedagogik kengashi (keyingi o‘rinlarda — Kengash) tashkil etiladi. Kengash to‘g‘risidagi nizom va uning ish rejasi Kengash yig‘ilishida tasdiqlanadi.

Kengash tarkibi direktor tomonidan tasdiqlanadi. Kengash tarkibiga oliy ta’lim muassasasining tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari, direktor o‘rnbosarlari, kotib, yuqori malakali o‘qituvchilar, ishlab chiqarish ta’limi ustalari hamda biriktirilgan oliy ta’lim muassasasi vakillari kiradi.

Kengash qarorlarining ijrosi direktor va uning o‘rnbosarlari tomonidan ta’milanadi.

23. Kengashning vakolatlariga quyidagilar kiradi:

texnikum faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi hamda tegishli vazirlik, idora va tashkilotlarining buyruqlari, hududiy kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasining ko‘rsatmalari va topshiriqlari ijrosi ta’milanishini tashkil qilish; texnikumning yillik ish rejasi va boshqa rejalarini tasdiqlash;

budjetdan tashqari mablag‘lar sarf-xarajati hisobotlarini ko‘rib chiqish;

texnikum pedagogik jamoasasining faoliyatini o‘quvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini ta’minalashga, o‘quvchilarga ta’lim berish sifatini oshirishga yo‘naltirish;

oliy ta’lim muassasasi bilan hamkorlikda o‘quv-metodik jarayonni tashkil etish, moddiy-teknik bazadan unumli foydalanish masalalarini ko‘rib chiqish;

texnikum o‘quvchilarining yo‘nalishlar bo‘yicha axborotlari va hisobotlarini eshitish, ta’lim muassasasining sanitariya-gigiyenik holati, yong‘inga qarshi amalga oshiriladigan ishlar, mehnatni muhofaza qilish, o‘quvchilarning sog‘lig‘i va hayotiga oid hamda boshqa masalalarni muhokama qilish va qaror qabul qilish;

texnikum guruh murabbiylari faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni eshitish;

qabul komissiyasining texnikumga o‘quvchilarni qabul qilish yuzasidan hisobotini eshitish;

o‘quvchilarga ta’lim berishda o‘qitishning ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni tatbiq etish choralarini ko‘rish;

o‘quvchilarni yuksak ma’naviy-axloqiy, umuminsoniy va milliy ruhda, o‘z Vatani, xalqini ardoqlovchi, tinchlik va barqarorlikka qaratilgan milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish va joriy etish;

texnikumda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlar qabul qilish;

o‘quvchilarni kursdan kursga o‘tkazish, kursda qoldirish, chetlashtirish, o‘qishga tiklash, bitiruvchilarga o‘qishni tamomlaganlik to‘g‘risidagi diplomlar, shu jumladan, ularning dublikatini berish masalalarini ko‘rib chiqish;

yuqori malakali pedagoglarning ish tajribasini o‘rganish va ommalashtirish, ularni davlat mukofotlariga tavsiya etish, yosh pedagog o‘qituvchilarga metodik yordam ko‘rsatish ishlarini tashkil etish;

o‘z vakolati doirasida lokal hujjatlarni tasdiqlash va ularning bajarilishini nazorat qilish;

chin yetim, yetim, kam ta’milangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj o‘quvchilarni har tomonlama ijtimoiy himoya qilish masalalarini ko‘rib chiqish;

direktor o‘rnbosarlari, tarkibiy bo‘linma rahbarlarining hisobotlarini eshitish.

Kengash texnikum faoliyatiga taalluqli bo‘lgan boshqa muhim masalalarni ham ko‘rib chiqish huquqiga ega.

24. Texnikum tarkibida kasaba uyushmasi, xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilot, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, murabbiylar kengashi va ta'lim-tarbiya jarayoniga daxldor bo'lgan boshqa jamoat tuzilmalari tashkil etiladi.

25. Texnikumda fan kafedralari va biriktirilgan oliy ta'lim muassasalarining kafedra filiallari tashkil etiladi.

Tashkil etilgan kafedralar ular faoliyati to'g'risidagi nizomlar bilan tartibga solinadi.

26. Texnikumning o'qituvchilari va tegishli oliy ta'lim muassasasi kafedralarining professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda ta'lim sifatini oshirish borasida hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

27. Texnikum direktori ta'lim muassasasidagi o'quv-tarbiya va ilmiy-metodik ishlar samaradorligi bo'yicha oliy ta'lim muassasasining kengashida hisobot beradi.

Oliy ta'lim muassasasi kengashi yig'ilishlarida texnikum direktori ishtirok etadi.

8-bob. Pedagog xodimlar, o'quv-tarbiyaviy xodimlar

28. Texnikumda pedagog xodimlaor, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar faoliyat yuritadi.

29. Pedagog xodimlar tarkibiga oliy ma'lumotli, katta, yetakchi va bosh o'qituvchi va ishlab chiqarish ustasi lavozimlari kiradi.

30. Belgilangan talablarga muvofiq tegishli oliy ma'lumotga, kasb tayyorgarligi va zamonaviy talablarga javob beradigan, yuksak malaka, professional tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar texnikumda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Sud qarori bilan kasb-hunar ta'limi muassasalarida ishlashi taqiqlangan shaxslarning texnikumga faoliyat olib borishiga yo'l qo'yilmaydi.

31. Texnikumlarga xodimlarni ishga qabul qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari, vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning mutaxassislari o'rindoshlik asosida yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soatbay ish haqi to'lash shartlari asosida pedagogik faoliyatga jalb etilishi mumkin.

32. Pedagog, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarning huquq va majburiyatlari texnikumning ichki tartib-qoidalari, odob-axloq qoidalari va lavozim yo'riqnomalarida belgilanadi.

33. Texnikumning o'qituvchi va boshqa xodimlari tarkibini davriy attestatsiyadan o'tkazish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

34. Texnikum direktori o'rribosarlari bo'yicha tegishli vazirlik va idora bilan kelishgan holda texnikum direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

9-bob. Jamoat tashkilotlari

35. Texnikumda o'quvchi, pedagog xodim, ma'muriy va yordamchi xodimlarni birlashtiruvchi jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Jamoat tashkilotlarining faoliyati amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

36. Texnikum o'quvchilarining Yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkiloti o'zini o'zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkilot bo'lib, yoshlarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi hamda oshkoraliq va adolat tamoyillari asosida ish yuritadi.

37. Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti O'zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#) va tegishli qonunchilik hujjatlarini hamda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti Nizomi asosida faoliyat ko'rsatadi.

38. Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotining maqsad-vazifalari texnikum yoshlarini birlashtirish, sog'lom turmush tarzi asosida tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rin egallashga ko'maklashish, ularning manfaatlarini har tomonlama himoya qilishdan iboratdir.

39. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi **Qonunida** belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kasaba uyushmasi qo‘mitasi texnikum xodimlari va o‘quvchilarining ko‘ngilli jamoat birlashmasi sifatida e’tirof etiladi.

40. Kasaba uyushmasi qo‘mitasi kasaba uyushmalari to‘g‘risidagi va boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan ish ko‘radi.

10-bob. Texnikumning mol-mulki va mablag‘lari

41. Texnikum o‘zining moliya-xo‘jalik faoliyatini budgetdan tashqari mablag‘lar doirasida amalga oshiradi. Texnikum faoliyatini moliyalashtirish quyidagi manbalar va mablag‘lar orqali amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda:

tegishli vazirlik, idora va tashkilotlarning budgetdan tashqari mablag‘lari;

o‘quvchilarni davlat buyurtmasi va to‘lov-shartnomaga asosida o‘qitishdan tushgan mablag‘lar;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbaalar hisobidan amalga oshiriladi.

42. Texnikumning moliyaviy mablag‘i uning to‘liq ixtiyorida bo‘lib, qonun bilan belgilangan tartibda ta’lim muassasasining ehtiyojini qondirishga ishlataladi.

43. Bino, xonalar mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena me’yorlariga va yong‘in xavfsizligi qoidalariga muvofiq jihozlanadi va foydalilanildi.

44. Texnikum o‘z faoliyati natijalarining buxgalteriya hisobini belgilangan tartibda amalga oshiradi, moliya va statistika hisobotlarini yuritadi hamda tegishli organlarga taqdim etadi.

45. Texnikumning moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

11-bob. Qayta tashkil etish va tugatish

46. Texnikumni qayta tashkil etish yoki tugatish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

**Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagи 466-son qaroriga
5-ILOVA**

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2012-yil 6-iyuldagi 200-son **qarori** (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2012-yil, 7-son, 49-modda).

2. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida” 2017-yil 1-maydagи 251-son **qarori** (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2017-yil, 18-son, 324-modda).

(Qonun hujjatlari ma ’lumotlari milliy bazasi, 08.08.2020-y., 09/20/466/1164-son; Qonunchilik ma ’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2021-y., 09/21/345/0522-son, 23.11.2021-y., 09/21/705/1082-son; 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son; 15.04.2022-y., 09/22/191/0315-son; 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son; 11.12.2023-y., 09/23/648/0929-son)